

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**BYUDJET HISOBI VA DAVLAT JAMG'ARMALARI  
FAKULTETI**

**“TASDIQLAYMAN”**

“Byudjet hisobi va davlat  
jamg'armalari” fakulteti  
dekani, i.f.n, dots.

Komolov O.S. \_\_\_\_\_

“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018 y.

**“BAHOLASH ISHI VA INVESTITSİYALAR”  
KAFEDRASI**

**ERGASHEV ALIBEK OTABEK O'G'LI**

**SUG'URTALASH MAQSADIDA KO'CHAR MULK QIYMATINI  
BAHOLASH**

**5231500 – “Baholash ishi” ta'lim yo'nalishi bo'yicha  
bakalavr darajasini olish uchun**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar:  
**dots. Xo'jamqulov D.**

\_\_\_\_\_  
“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018 y.

“Himoyaga tavsiya etiladi”  
“Baholash ishi va investitsiyalar”  
kafedra mudiri v.v.b.

\_\_\_\_\_  
i.f.d. dots. Xomitov K.  
“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018 y.

Toshkent – 2018

## MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                                                      |           |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>KIRISH.....</b>                                                                                                                                                                                   | <b>3</b>  |
| <b>1-BOB. SUG'URTALASH MAQSADIDA KO'CHAR MULK QIYMATINI BAHOLASHNING NAZARIY, HUQUQIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....</b>                                                                               | <b>6</b>  |
| 1.1. Sug'urtaning iqtisodiy mazmuni, maqsadi, tamoyillari va funktsiyalari.....                                                                                                                      | 6         |
| 1.2. Sug'urtalash maqsadida ko'char mulkni baholash faoliyatining ob'ekti sifatida talqini, turlari, ularni baholash tamoyillari va maqsadlari.....                                                  | 13        |
| 1.3. Sug'urtalash maqsadida ko'char mulkning bozor qiymatini baholashning bosqichlari va metodologiyasi.....                                                                                         | 22        |
| 1-bob bo'yicha xulosa.....                                                                                                                                                                           | 28        |
| <b>2- BOB. SUG'URTALASH MAQSADIDA "UNIVERSAL TARAQQIYOT TEKSTIL" MCHJ KO'CHAR MULKINING QIYMATINI BAHOLASHNIG HUQUQIY ASOSLARI, OMILLARI VA AXBOROTLARNI TIZIMLASHTIRISH.....</b>                    | <b>31</b> |
| 2.1. Sug'urtalash maqsadida ko'char mulk qiymatini baholashning huquqiy asoslari.....                                                                                                                | 31        |
| 2.2. Sug'urtalash maqsadida "Universal taraqqiyot tekstil" MChJ uskunalarining bozor qiymatiga ta'sir etuvchi omillar tasnifi va tavsifi.....                                                        | 39        |
| 2.3. Sug'urtalash maqsadida ko'char mulk baholash obyekti sifatida tahlili; rusumi, eksplatatsiya holati va muhiti, indentifikatsiyalash, ekspertizasi hamda axborotlar tizimini shakllantirish..... | 46        |
| 2-bob bo'yicha xulosa.....                                                                                                                                                                           | 55        |
| <b>3-BOB. SUG'URTALASH MAQSADIDA "UNIVERSAL TARAQQIYOT TEKSTIL" MCHJ KO'CHAR MULKINING QIYMATINI BAHOLASH BO'YICHA HISOBOT SHAKLIDA EKSPERT XULOSASINI TAYYORLASHNI TAKOMILLSHTIRISH.....</b>        | <b>57</b> |
| 3.1. Sug'urtalash maqsadida "Universal taraqqiyot tekstil" MChJ ko'char mulkining bozor qiymatini baholash.....                                                                                      | 57        |
| 3.2. Sug'urtalash maqsadida "Universal taraqqiyot tekstil" MChJ ko'char mulkining yakuniy bozor qiymatini aniqlash va ekspert xulosasi loyihasini shakllantirish.....                                | 66        |
| 3-bob bo'yicha xulosa.....                                                                                                                                                                           | 69        |
| <b>HULOSA VA TAKLIFLAR.....</b>                                                                                                                                                                      | <b>71</b> |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>                                                                                                                                                       | <b>74</b> |
| <b>ILOVALAR.....</b>                                                                                                                                                                                 | <b>80</b> |

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Bugungi kundagi mamalakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish turli sohalarda olib boriladigan islohotlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, bugungi kunda respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizning barcha jabhalarida tub o'zgarishlar va yangilanishlar jadal sur'atlar bilan amalga oshmoqda. Mamlakatning iqtisodiy o'sishida mulklardan foydalanish juda muhim ahamiyat kasb etib, ulardan samarali foydalanishda ularning bozor qiymatini shakllantirish va unga xizmat qiluvchi sifatli va adolatli baholash ishini olib borish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mulk qiymatini baholash mulk turlariga qarab turlicha yondashuvlar asosida baholash usullarini qo'llashni taqoz etish bilan birga zarur holatlar bo'yicha baholash tamoyillarining ham amal qilinishi ta'minlanadi.

Bugungi kunda mavjud turli mulkchilik shakllari asosida ko'char mulklar tarkibida turuvchi turli-tuman mashina va uskunalar, jihozlar, avtotransport vositalari kabilardan turli maqsadlarda foydalanish imkoniyatlarining ortib borishi va bunga qulay shart-sharoitlarning yaratilayotganligi bu turdagi mulklar qiymatini baholashga bo'lgan e'tibor va talabning, jumladan, sug'urtalash maqsadida ham ko'char mulkni baholash zaruriyatining ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa mamlakatimizda mulkni baholashtirishga doir munosabatlarni yanada rivojlantirib borish zarurligini, unda mulk qiymatini adolatli va sifatli baholashni tashkil etish, baholovchi tashkilotlar o'rtasida bozordagi erkin va ochiq raqobat muhitini yanada takomillashtirish, ushbu sohadagi mutaxassislar malakasi va tajribalarini yanada oshirish zarurligini keltirib chiqaradi.

Baholash tashkilotlari faoliyatini samarali tashkil etish, rivojlantirish, pirovardida, mulkdan foydalanish samaradorligini va iqtisodiyotda pul mablag'lari harakatining faollashuviga ta'sir ko'rsatib, pirovardida, u iqtisodiy o'sishga ham o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Aynan ana shu eng muhim vazifalar iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari va ustuvor vazifalariga jiddiy

o'zgartirishlar kiritish uchun poydevor bo'lishi kerak<sup>1</sup>.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan belgilab berilgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning Harakatlar strategiyasi ijrosini ta'minlash yo'lida barcha sohalaridagi kabi mulk qiymatini, shu jumladan, sug'urtalash ko'char mulklarning bozor qiymatini baholash sifati samaradorligini oshirishga doir izlanishlarni takomillashtirishning zarurligi mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqot ob'ekti va predmeti.** Sug'urtalash maqsadidagi ko'char mulklar bitiruv malakaviy ishining tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Sug'urtalash maqsadidagi ko'char mulklarning bozor qiymatini baholash bilan bog'liq munosabatlar, ularning me'yoriy-huquqiy asoslari va amalga oshirilish tartiblari tadqiqot predmeti hisoblanadi.

**Tadqiqot maqsadi va vazifalari.** Sug'urtalash maqsadidagi ko'char mulklar qiymatini adolatli baholashni samarali tashkil etish va uning sifatini oshirishga qaratilgan xulosalarni shakllantirish va takliflarni ishlab chiqish tadqiqot maqsadi hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun **quyidagi vazifalar** bajarildi:

- sug'urtaning iqtisodiy mazmuni, maqsadi, tamoyillari va funktsiyalarini tadqiq etish va yoritish;
- sug'urtalash maqsadida ko'char mulkni baholash faoliyatining ob'ekti sifatida talqini, turlari, ularni baholash tamoyillari va maqsadlarini ochib berish;
- sug'urtalash maqsadida ko'char mulkning bozor qiymatini baholashning bosqichlari va metodologiyasini tahlil qilish va yoritish;
- sug'urtalash maqsadida ko'char mulk qiymatini baholashning huquqiy asoslarini tahlil etish;
- sug'urtalash maqsadida "Universal taraqqiyot tekstil" MChJ uskunalarining bozor qiymatiga ta'sir etuvchi omillarni tasniflash va tavsiflash;
- sug'urtalash maqsadida "Universal taraqqiyot tekstil" MChJ ko'char

---

<sup>1</sup> Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. // [www.uza.uz](http://www.uza.uz). 16.01.2017.

mulkning bozor qiymatini baholash yondashuvlari asosida baholash hamda uning yakuniy qiymatini shakllantirish jarayonlarini tahlil etish;

- sug'urtalash maqsadida ko'char mulk qiymatini baholash sifatini oshirishga doir xulosa va takliflarni ishlab chiqish.

**Mavzuning nazariy va amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati sug'urtalash maqsadida ko'char mulk qiymatini baholashni tashkil etishning nazariy asoslari bo'yicha malakaviy va mutaxassislik bilimlarini chuqurlashtirishda oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan "Baholash ishi" va boshqa fanlarning o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'qitish jarayonida foydalanishda aks etadi. Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan xulosalar va tavsiyalardan kelgusida mazkur sohadagi ilmiy izlanishlarni olib borish va baholash tashkilotlari tomonidan sug'urtalash maqsadida ko'char mulk qiymatini baholashni samarali tashkil etishda foydalanish mumkinligida ko'rinadi.

**Bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi.** Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, jami 8 ta paragrafdan iborat uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, jami 4 ta rasm, 7 ta jadval ma'lumotlari va 11 ta formula, 57 ta adabiyot, 2 ta ilovadan foydalanilgan bolib, umumiy 83 betni tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, nazariy va amaliy ahamiyati asoslab berilib, ishning birinchi bobida sug'urtalash maqsadida ko'char mulk qiymatini baholashning nazariy, huquqiy va metodologik asoslari, ikkinchi bobida sug'urtalash maqsadida "Universal taraqqiyot tekstil" MChJ ko'char mulkning qiymatini baholashnig huquqiy asoslari, omillari va axborotlarni tizimlashtirish, uchinchi bobida sug'urtalash maqsadida "Universal taraqqiyot tekstil" MChJ ko'char mulkning qiymatini baholash bo'yicha hisobot shaklida ekspert xulosasini tayyorlashni takomillshtirish masalalari tadqiq etilgan hamda yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining xulosa va takliflar qismida mavzuni o'rganish natijasida shakllantirilgan umumiy xulosalar va takliflar o'rin olgan.

## **1-BOB. SUG'URTALASH MAQSADIDA KO'CHAR MULK QIYMATINI BAHOLASHNING NAZARIY, HUQUQIY VA METODOLOGIK ASOSLARI**

### **1.1. Sug'urtaning iqtisodiy mazmuni, maqsadi, tamoyillari va funktsiyalari.**

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida kuzatilayotgan o'zgarishlar va rivojlanishlar mamlakatimizda barcha sohalarida olib borilayotgan keng ko'lamli va samarali islohotlar natijasida erishilayotgan yutuqlarimizdan dalolatdir. Bunday o'zgarish va yuksalishlarga erishishda sug'urta sohasining o'ziga xos o'рни va ahamiyati ham mavjudligi barchamizga ma'lum. Chunki, sug'urta bugungi kunda hayotimizning barcha jabhalariga kirib borgan muhim sohaga aylangan. Rivojlangan davlatlar amaliyoti tajribalari ularning buguni iqtisodiy taraqqiyotida, xususan, moliya-xujalik munosabatlari, ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirishda sug'urta asosiy o'rin egallashini tasdiqlab turibdi. Shu sababdan ham O'zbekistonda mazkur sohani yanada rivojlantirish eng dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan sug'urta faoliyati sug'urta munosabatlarning o'rnatilishi va rivojlanishiga asoslanadi. Sug'urta faoliyati sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilar o'rnasida yuzaga keladigan munosabat ekan, bu munosabatning yuzaga kelishi sug'urtalash va sug'urtaga bo'lgan zaruriyatga asoslanadi.

Shuni qayd etish lozimki, sug'urta munosabatlari o'tgan va hozirgi asrda paydo bo'lgan munosabat emas. Shunga ko'ra, sug'urta kishilik jamiyatining turli bosqichlarida mavjud bo'lgan va uzoq tarixga ega. Sug'urta insoniyat va uning mol-mulkini ishonchli himoyalashning muhim vositasi sifatida o'zoq tarixga ega. Tarixiy hujjatlarga ko'ra, notijorat sug'urtaning dastlabki shakllari, eramizdan 2000 yil oldin Vavilon podshohi Xammurapi qonunlarida, shuningdek, Fors ko'rfazi, Qadimgi Gretsiya va Misr, Qadimgi Rimdagi savdogarlarning o'zaro

tuzgan bitimlarida o'z aksini topgan<sup>2</sup>. Bu bitim shartlariga muvofiq, umumiy karvon safida savdo qiluvchi savdogarlardan birortasi stixiyali hodisalar yoki qaroqchilar hujumi oqibatida zarar ko'rsa, bu zararlar boshqa savdogarlar tomonidan qoplanishi belgilangan. Bu davrlarda maxsus sug'urta kompaniyalari bo'lmagan va sug'urta badallari to'lanmagan.

Dengiz sug'urtasi bo'yicha dastlabki jamiyat (sug'urta tashkiloti-ta'kid muallifniki) 1668 yilda Frantsiyada tashkil etilgan. XVI asr oxirlarida Londonda xususiy sug'urtalovchilarning uyushmasi tashkil etilgan. 1871 yilgacha ushbu uyushma "London lloydi" nomi bilan faoliyat ko'rsatib kelgan. Germaniyadagi dastlabki sug'urta jamiyatlari 1765 yilda Gamburg va Berlinda tuzilgan<sup>3</sup>.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, qadimda dastlab sug'urtalashning fondsiz shakli vujudga kelgan va rivojlangan. Sug'urta sohasida tadqiqotlarni olib boruvchi mutaxassislarning ba'zilar jamoaviy tarzda o'zaro yordam shakllarini sug'urtalashning ma'lum shakli deb hisoblasalar, boshqalari bu munosabatlarda sug'urta fondi tashkil etilmaganligi sababli sug'urtalashning ilk bosqichlari deb tan oladilar. Qadimda moddiy va boshqa zararlarni keltirib chiqaruvchi tabiiy va boshqa ofatlarni insonlar tasodifiy deb hisoblaganlar. Keyinchalik tabiiy ofatlar sodir bo'lishining turli qonuniyatlari aniqlandi. Mazkur qonuniyatlar ijtimoiy ishlab chiqarishning risklilik xarakteri bilan bog'liqdir. Ijtimoiy ishlab chiqarishning risklilik darajasining asosi bu har bir mulk egasi yoki ishlab chiqaruvchining o'z moddiy holatidan manfaatdorligidir. Shuni ta'kidlash joizki, manfaatdor shaxslar soni har doim tasodifiy hodisalar oqibatida zarar ko'rgan shaxslar sonidan ko'p bo'lgan. Bu esa, o'z navbatida, tasodifiy hodisalar oqibatida etgan zararni xolisona tarzda manfaatdor shaxslar o'rtasida taqsimlash fikrini keltirib chiqardi. Natijada manfaatdor shaxslar tasodifiy tarzda zarar ko'rgan shaxsning xarajatlarini qoplash uchun olidindan jamiyatlarga birlasha boshladilar va sug'urtaning ilk shakllarini keltirib chiqardi (o'zaro sug'urtalash).

Sug'urtaning dastlabki qo'llanilish amaliyotiga xos bo'lgan mazmundagi

---

<sup>2</sup> Гвозденко А.А. Основы страхования: учебник. – М.: Финансы и статистика, 2007. – С. 7.

<sup>3</sup> Сахирова Н.П. Страхование: учебное пособие. – М.: Проспект, 2006. – С. 6.

ta'rifni bir rus olimi N.Bendina sug'urtaning iqtisodiy mohiyatini ochib berish maqsadida bergan quyidagi ta'rifda uchratish mumkin: "Yuridik va jismoniy shaxslar zarar ko'rganda ko'rilgan zararni ko'pchilik shaxslar o'rtasida taqsimlash orqali uni qoplash usulidir"<sup>4</sup>.

Rossiyalik iqtisodchi-olim, prof. B.Serbinovskiyning fikricha, "Sug'urta – yuridik va jismoniy shaxslar to'laydigan sugurta badallari (mukofotlari)dan shakllanadigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) ro'y berganda ushbu shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha munosabatlar tizimidir"<sup>5</sup>.

Yana bir rossiyalik iqtisodchi-olimlar guruhi Arxipov A.P., Gomellya V.B., Tulenti D.S. sug'urtaga shunday ta'rif beradilar: "Sug'urta – xavfli, noxush voqealar oqibatidan himoya vositasi bo'lib, ammo, barcha shu kabi voqealardan emas, balki, favqulodda yuz berishi mumkin bo'lgan va zarar darajasi oldindan baholangan ehtimolliklardan himoya bo'lib, bunday voqealarning qachon, qaerda va qanday holatda yuz berishi noma'lumdir"<sup>6</sup>.

Mamlakatimiz iqtisodchi-olimlaridan T.Baymuratov fikriga ko'ra: "Sug'urta – moliyaviy ta'minot vositasi sifatida mijozlarning mol-mulkini risklardan himoyasini kafolatlashi orqali sug'urtalanuvchining ijtimoiy-iqtisodiy himoyasini ta'minlaydi"<sup>7</sup>.

O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 5 apreldagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida ushbu atamaga quyidagicha ta'rif keltirilgan: "Sug'urta deganda yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi"<sup>8</sup>.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida "sug'urta" atamasiga quyidagicha ta'rif

<sup>4</sup> Бендина Н.В. Страхование. – М.: Приор, 2005. – С. 3.

<sup>5</sup> Сербиновский Б.Ю. Страховое дело. – М.: Феникс, 2004. – С. 7.

<sup>6</sup> Архипов А.П., Гомелля В.Б., Туленты Д.С. Страхование. – М.: Финансы и статистика, 2007. – С. 10.

<sup>7</sup> Baymuratov B.M. Sug'urta faoliyatida risklar transferi. Monografiya. – T.: IDTISOD-MOLIYA, 2005. – b. 13.

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 5 apreldagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 3-moddasi. // lex.uz



berish mumkin: *sug'urta – sug'urtalovchi tomonidan maxsus shakllantirilgan pul fondlari hisobidan yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki va manfaatlari bo'yicha turli yo'qotishlarga oid risklardan himoyalash.*

Bunda pul fondlari sug'urta fondini ifodalab, u sug'urta badallari va sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatidan ajratilgan mablag'lardan shakllantirilgan, hamda faqat sug'urta tovonini to'lash uchun foydalaniladigan pul jamg'armasi hisoblanadi. U sug'urtalovchining moliyaviy majburiyatini bajarish uchun zarur bo'lgan zahira fondlarini o'z ichiga oladi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini va daromadlarini, fuqarolarning sog'ligi yo'qotish, sug'urta qaltisliklari va ularni oldini olish chora-tadbirlari, barcha yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki va daromadlarini sug'urta himoyasiga olish – sug'urtalashning iqtisodiy mohiyatini belgilab beradi.

Ko'p asrlik sug'urtalash tarixi shuni isbotlab berdiki, sug'urta faoliyati iqtisodiyotga ijobiy ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biridir. Bundan tashqari, sug'urta tashkilotlari tomonidan shunday faoliyat amalga oshirildiki, bu sug'urta hodisasini oldini olish ishlaridir. Sug'urtalash, nafaqat, sug'urtalangan mulkning xavfsizligi ta'minlashini, balki, sug'urta hodisalarining ro'y berishi kamayishiga va yuridik va jismoniy shaxslar xavfsizligini moliyaviy himoyalashga yordam berishini isbotlab berdi.

Sug'urtalashdagi eng asosiy omil – bu riskning mavjudligi hisoblanadi. Risk sug'urta munosabatlari paydo bo'lishining asosiy shartidir. Risk bo'lmas ekan, sug'urtaning bo'lishi mumkin emas. Shu sababli sug'urtalovchilar sug'urta ob'ektiga nisbatan sug'urtalashni amalga oshirganida uning turli omillar ta'sirida ob'ektning mavjud holati, darodmadi va qiymatiga zarar etkazilishi holatini baholaydilar.

Turli ob'ektlarni nisbatan sug'urtalash ishlari riskka asoslanar ekan, unda sug'urtalovchi, sug'urtalanuvchi va sug'urta vositachilari ishtirok etadilar. O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 5 apreldagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 5-moddasiga ko'ra, sug'urta faoliyati sub'ektlari – sug'urta bozorining professional ishtirokchilari sug'urta faoliyatining sub'ektlari

hisoblanadi. Sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta bozorining professional ishtirokchilari hisoblanadilar. Sug'urta brokeri, qayta sug'urta brokeri va sug'urta agenti sug'urta vositachilari hisoblanadilar.

Sug'urta faoliyati deganda sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati tushuniladi.

Sug'urta munosabatlarda quyidagi tomonlar qatnashadilar:

**Sug'urtalovchi** – sug'urta xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan va tegishli litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar. Tadbirkorlik faoliyatining muhim bo'g'ini. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi yuridik shaxs sug'urtalovchi deb hisoblanadi.

Sug'urtalovchilar turli mulk shakliga ega bo'lishi mumkin (davlat sug'urta tashkilotlari, aksionerlik sug'urta tashkilotlari hamda o'zaro sug'urtalash jamiyatlari). Sug'urta faoliyatini olib boruvchi tashkilotlar maxsus davlat organining tegishli litsenziyasiga ega bo'lishi zarur.

**Sug'urtalanuvchi** – sug'urtalovchi bilan aniq sug'urta munosabati o'rnatgan va tegishli sug'urta mukofotlarini to'lovchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

**Sug'urta vositachilari** – sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasida vositachilik vazifasini bajaruvchi yuridik shaxs. Maqomi bo'yicha vositachi sug'urtalanuvchining manfaatlarini himoya qiladi. Ko'rsatgan xizmatlari uchun vositachi tegishli vositachilik haqini oladi.

Sug'urta faoliyati sub'ektlari o'rtasida o'rnatiladigan munosabat sug'urta shartnomasi asosida amalga oshiriladi. Sug'urta shartnomasi – bu yozma ravishdagi bitim bo'lib, bunga ko'ra oldindan ko'zda tutilgan sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urta tashkiloti sug'urtalanuvchiga yoki uning uchun olish huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxsga ushbu hodisa tufayli ko'rilgan zararni to'laydi. Sug'urta shartnomasining amal qilishi, odatda, yagona sug'urta badali bo'lgan chog'da sug'urta badalining barcha miqdori to'lab bo'lingandan keyin

yoki badalning birinchi qismi to'langandan keyin boshlanadi. Sug'urta shartnomasi amal qilishi sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan muddat tugagandan keyin to'xtaydi. Shuningdek, sug'urta hodisasi yuz bergan holda va unga sug'urta to'voni to'liq to'langanda sug'urta shartnomasining amal qilish muddati belgilangan muddatdan oldin to'xtatiladi.

Sug'urta shartnomasini tuzish va uning amal qilish davrida mijoz doimo sug'urtalovchining e'tiborida ekanligini, sug'urta mukofotlari hisobiga o'zi uchun ishonchli himoyani sotib olganligini, tanlagan sug'urta tashkiloti samarali boshqarilayotganligini hamda uning manfaatlari birinchi o'ringa quyilayotganligini his etishi muhimdir.

Sugurta riski yuzasidan ehtimollikka, sug'urta ta'minotiga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltiruvchi qator omillar sub'ektlar tomonidan talab sifatida qo'yilishi mumkin. Ular jumlasiga:

- iqtisodiyotda nodavlat sektorning kengayishi;
- uy-joy fondlarining kengayishi;
- aholi turmush darajasining oshib borishi kabi qator omillar kiradi.

Sug'urta shartnomalarida o'z aksini topgan risklar sug'urtaviy risklar deyiladi. Risk bahosining pulda ifodalanishi sug'urta stavkasini tashkil etadi. Risk doimiy ko'rsatkich emas. balki u doimo o'zgarib turadi. Bu o'zgarishlar iqtisodiyotdagi va boshqa sohadagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Sug'urta tashkiloti riskning rivojlanishini, holatini doimo kuzatishi lozim, ya'ni tegishli statistik hisob olib borishi, yig'ilgan ma'lumotlarni qayta ishlashi va tahlil qilishi kerak.

Riskni baholash uchun uni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Sug'urtalanishi mumkin bo'lgan risklar.
2. Sug'urtalanishi mumkin bo'lmagan risklar.

Riskning eng katta guruhini sug'urtalanishi mumkin bo'lgan risklar tashkil etadi. Quyida keltirilgan mezonlar asosida sug'urta riskini sug'urtasiz risklardan farq qilish mumkin:


- risk tasodifiy xarakterga ega bo'lmog'i kerak;

- sug'urta hodisalarining ro'y berish dalilining vaqti va makonining noma'lum bo'lishi;

- xavf solish manbasiga ko'ra, risklar tabiatning stixik kuchlari bilan bog'liq risklar va moddiy boylikni o'zlashtirish oqibatida insoniyatning tabiatga ta'siri bilan bog'liq risklarga bo'linadi. Risklarni turkumlashda katta halokatli risklar alohida o'rin tutadi. Chunki, bunday risklar ro'y berishi natijasida ko'plab ob'ektlar yirik miqdorda zarar ko'rish mumkin. Katta halokatli risklarga zilzila, tsunami, kuchli shamol misol bo'lishi mumkin.

Yuqorida aytilgan risklardan tashqari ekologik, siyosiy va maxsus risklar bo'lishi mumkin.

Sug'urtalashdan asosiy maqsad himoyalashdir<sup>9</sup>. Himoyalash orqali sug'urtalash moliya faoliyatining alohida va muhim tarmog'iga aylandi. Bunda sug'urtalash quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:



**1.1-rasm. Sug'urtalash tamoyillari<sup>10</sup>**

Sug'urtaning iqtisodiy tabiati uning funksiyalarida o'z aksini topadi. Moliya,

<sup>9</sup> Архипов А.П., Адонин А.С. Страхование дело. Учебно-методический комплекс. – М.: Изд. Центр ЕАОИ, 2008. – С. 10.

<sup>10</sup> Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish asosida muallif tomonidan tuzildi.

kredit kabi iqtisodiy kategoriyalar bilan bir qatorda sug'urta ham bir qator funksiyalarni bajaradi. Ta'kidlash lozimki, iqtisodiy adabiyotlarda sug'urtaning funksiyalari bir necha ko'rinishda talqin etiladi. Ularni o'rganish asosida biz sug'urta quyidagi funktsiyalarni bajaradi, degan xulosga keldik:

1. Sug'urta fondini tashkil etish bilan bog'liq funksiya.
2. Sug'urta fondidan foydalanish bilan bog'liq funksiya.
3. Nazorat funksiyasi.

Yuqorida qayd etilgan funksiyalar sug'urta faoliyatida doimiy hisoblanadi va har qanday sharoitda o'zgarmasdir.

## **1.2. Sug'urtalash maqsadida ko'char mulkni baholash faoliyatining ob'ekti sifatida talqini, turlari, ularni baholash tamoyillari va maqsadlari**

O'zbekistonda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va aholi farovonligining o'sishiga imkoniyat yaratuvchi har qanday shakldagi mulkchilik bo'lishiga qonunan ruxsat beriladi. Mulkchilikning hamma shakllari daxlsiz bo'lishiga va ularning rivojlanishi uchun teng sharoit yaratilishiga qonun kafolat beradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida mulkchilik munosabatlari va mulk bilan bo'ladigan jarayonlar quyidacha bayon etilgan.

“Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususiyl mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin.

Mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar etkazmasligi,

fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart<sup>11</sup>.

Xuddi shunday mulk bilan bog'liq jarayonlarda zarur bo'ladigan mulk qiymatini baholash faoliyati tushunchasi va baholovchi kasbi paydo bo'lganidan buyon hali uncha ko'p vaqt o'tgani yo'q.

Mamlakatimizdagi amaldagi qonunchilik mulk turlaridan turli mulkchilik shakllarida foydalanish huquqi va erkinligini beradi. Bu esa tadbirkorlik faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratilayotgan bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda mulkdan foydalanish mulk egasining xohishi va manfaatiga muvofiq holda amalga oshirilib, buning natijasida mulk egasi undan daromad olish, uning qiymatini qo'paytirish, boshqa ijtimoiy samaralarni hosil qilishni ko'zlaydi.

Lekin, mulk egasi doim ham o'z mulkidan ko'zlanganidek xavfsiz sharoitda va samarali foydalanishni amalga oshira olmasligi mumkin. Bunga mulk bilan bog'lik turli riskli vaziyatlarning yuzaga kelishi salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa mulkni sug'urtalash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Mulkni sug'urtalashda esa sug'urtalovchi, eng avvalo, uning qiymatini baholashni amalga oshirishi lozim bo'ladi.

Umuman olganda, bugungi kunda mulkning barcha turlarini baholash quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

1. Sug'urtalash.
2. Garov asosida kreditlash.
3. Mulkni qayta rasmiylashtirish.
4. Moliyalashtirish.
5. Daromaddan soliqqa tortish holatlari.
6. Mulkni soliqqa tortish.
7. Moliyaviy rejalashtirish.
8. Lizingga berish.
9. Hamkorlik tuzish va ajratish.
10. Meros qolgan mulkni baholash.

---

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 1992 yil 8 dekabr, 53-54-moddalar.

11. Loyiha bajarilishini tadqiq qilish.
12. Sotib olish narxini taqsimlash (allokatsiyalash).
13. Obyektni sotish.
14. Likvidatsiya qiymatini aniqlash.
15. Mulkni bo'lib olish.
16. Xusuiylashtirish.
17. Ustav fondini aniqlash.
18. Balans qiymatini aniqlash.
19. Qayta tiklash qiymatini aniqlash.
20. Qo'shma korxonadagi chet el va mahalliy investorlar ulushini baholash va h.k.

Mulkning qiymatini aniqlash jismoniy va yuridik shaxslarga ham birdek zarur. Bunda mulkning kapital sifatida va tovar sifatidagi xususiyatlariga ham e'tibor qaratish lozim.

Mulk kapital (ne'mat, boylik) sifatida ikkita xosiyatga – qiymat (agar ikkilamchi bozorda sotib olingan, masalan, qimmatli qog'oz bo'lsa narx) va foydaga – ega.

Mulk tovar sifatida ikkita xosiyatga – iste'mol qiymati va narxi (iste'molning barqaror davomiy ob'ektiv narxi, bozor qiymati bahosiga asoslangan boshlang'ich (bozorning tovar uchun belgilagan start) narxi turlari) hamda qiymatga va narxga – ega.

O'z navbatida, mulk qiymatini baholash quyidagi yo'nalishlarga asoslangan maqsadlarda ham amalga oshiriladi:

- birinchidan, uni qonundan tashqari bo'lgan tartibsizliklarga barham berish, ko'char va ko'chmas mulkni bahosi sun'iy o'sishini keskin oldini olish hamda bir maromga keltirishini ta'minlash;

- ikkinchinchidan, qonunda ko'rsatilgan tartibda baholovchi kompaniyalarni yaratib ular o'rtasida raqobatchilik muxitini yaratish va erkinlik, odillik printsiplarga tayangan xolda faoliyat yuritishini ta'minlash;

- uchinchidan, davlat soliq siyosatida mulkni baholovchi tashkilotlarga soliq

bo'yicha imtiyozlar berish hamda ularni qo'llab kuvvatlash;

- to'ttinchidan, mulk (ko'chmas mulk) ni bahosini turg'unligini saqlab turishini ta'minlash;

- beshinchidan, mulkni baholashda keng foydalanilayotgan me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqib, uni mos ravishda jamiyatimizning mulk bozoriga reallashtirishini hamda baholovchi tashkilotlarni ish faoliyatida foydalanadigan me'yoriy hujjatlarini takomillashtirishni ta'minlash.

Yuqoridagi keltirilgan maqsadlardan kelib chiqib, mulkni baholash jarayonida belgilangan tartiblar asosida to'g'ri faoliyat olib borilishi, baholash faoliyatining mamlakatimizda rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Mol-mulk fuqarolik huquqlari ob'yekti sifatida ko'chmas mulk va ko'char mulkka bo'linadi<sup>12</sup>. Mulk jumlasiga kirmaydigan mol-mulk ko'char mulk hisoblanadi.

Ko'char mulk tarkibiga kiruvchi avtotransport vositasini aniq tasniflash keyingi tahliliy qismini yoritish uchun asos bo'ladi. Shuning uchun avtotransport vositalariga tarif berish lozim. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga binoan ko'chmas mulk qatoriga kirmaydigan mulklar ko'char yoki harakatdagi mulklar hisoblanadi.

Ko'char mulklar harakatda bo'lishi mumkin, ya'ni doimiy harakatda bo'lishi mumkin bo'lgan hamda zarur holatlarda muayyan joyga ko'chirilgan holda harakatga keltirilib, foydalanilishi mumkin bo'lgan harakatdagi mulklardan iborat.

Mashina va uskunalar, transport vositalari harakatdagi mulk tushunchasi sifatida ifodalanadi. Mashina va uskunalar bu – ko'chmas mulkga tegishli bo'lmagan mulkchilikning moddiy ob'ektlari hisoblanadi<sup>13</sup>. Ular ma'lum bir funktsiyani bajaruvchi va alohida ob'ekt yoki biror bir tizim qismiga tegishli Harakatdagi mulk hisoblanadi.

Transport vositasi – bu odamlarni, yuklarni va unga o'rnatilgan qurilmalarni tashuvchi moslama.

---

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 83-modda. // lex.uz

<sup>13</sup> Matmurodov F.M. Baholash ishi. O'quv qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2012. – B. 84.



Ko'pincha "mashina va uskuna" so'zi bilan bir qatorda "harakatdagi mulk" so'z birikmasi ham ishlatiladi, u mulkni faqatgina yer bilan bog'langanini emas, balki mulkiy huquqlar bilan ham bog'liqligini ta'kidlaydi.

Ko'char mulk tarkibiga kiradigan mashina va uskunalarning baholash ob'yektlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:


1. Funktsional mustaqil mashinalar, agregatlar va o'rnatilgan uskunalar.
2. Texnologik jarayonga asosan, texnologik mashinalarni va yordamchi uskunalarni bir avtomatik tizimda birlashtiruvchi texnologik komplekslar.
3. Inventar ob'yektlarini mujassamlashtirgan, ishlab chiqarish tarkibining mashina va dastgohlari.

Shuning bilan birga, doimo tabiatiga ko'ra harakatlanishi bilan foydalanishda bo'luvchi ko'char mulk ob'yektlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Transport vositalari.
2. Dengiz transporlari (kemalar).
3. Turli maqsaddagi uchish apparatlari.
4. Ko'chmas mulk tarkibiga kiritilmagan pullar va qimmatli qog'ozlar.

Umumiy mazmunda ko'char mulklari ob'yekt turlarini quyidagi 1.2-rasm orqali ifodalash mumkin:

Iqtisodiy, siyosiy, savdo va ishlab chiqarish sohalaridagi holatlar va o'zgarishlarga, asosan, turli qiymat turlarini aniqlash ehtiyoji paydo bo'ladi. Baholash holati bu – baholash zaruratini tug'dirgan aniq shart sharoitlar. Mashina va uskunalarni baholash odatda quyidagi qiymat turlarini baholashni talab etadi: bozor qiymati, birlamchi qiymat, qayta tiklash qiymati, qoldiq qiymat, likvidatsion qiymat, utilizatsiya qiymati va sug'urta qiymati.



**1.2-rasm. Ko'char mulklari ob'yekt turlari<sup>14</sup>**

Bozor qiymati tushunchasi, baholash faoliyatining asosi hisoblanadi.

Bozor qiymati bu – pul miqdoriga tenglashtirilgan hisob o'lchovi.

Qayta ishlab chiqarish qiymati – joriy narxlar asosida hisoblangan va o'sha yoki o'xshash materiallardan ob'ektni qayta ishlab chiqarish uchun kerakli bo'lgan xarajatlar majmui.

Almashtirish qiymati – foydaliligi bo'yicha baholanayotgan ob'ektga ekvivalent bo'lgan yangi ob'ektning joriy qiymati.

Rejali likvidatsion qiymat – ma'lum muddatdan so'ng mulkni sotishdan olinishi mumkin bo'lgan pul ekvivalentida ifodalangan (tartiblashtirilgan likvidatsion) qiymat.

Tezlashtirilgan likvidatsiya qiymati – sotuvchi mulkini o'z xolatida va o'rni almashtirmagan xolda majburiy sotish qiymati.

Sug'urta qiymati – uskunaning sug'urtalash jarayonida aniqlangan va

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 15 maydagi "Mashina va uskunalar qiymatini baholash" Mulkni baholash milliy standarti (15-sonli MBMS) asosida muallif tomonidan tuzildi.

sug'urta polisida ko'rsatilgan bozor qiymati.

Bojxona qiymati – ob'ekt narxiga foiz nisbatida o'rnatilgan, tarif stavkasi bo'yicha bojxona bojlarini hisoblash narxi.

Utilizatsiya qiymati – o'z resurslarini butunlay ishlatgan va ish jarayonidan chiqarilgan uskuna qiymati.

Mashina va uskunalarni baholashda jahon tajribasida, bozor qiymatining uch turi qo'llaniladi:

1. Davomiy foydalanishdagi asoslangan bozor qiymati.
2. O'rnatilgan uskunaning asoslangan bozor qiymati.
3. O'rnini almashtirish (ko'chirish)dagi bozor qiymati.

Inflyatsiya va iqtisodiyotdagi boshqa tuzilmaviy o'zgarishlar, korxonalarning asosiy fondlarining qadrsizlanishiga va o'z qiymatini yo'qotishiga olib keladi. Asosiy fondlarni qayta tiklash esa kerakli mablag'lar bilan ta'minlanmaydi.

Mulkni baholash – bu ma'lum bir qiymatga ega bo'lgan va vaqtinchalik qiymatiga ega bo'lmagan ob'ektni (bino, inshoot, asbob-uskunalar qisqa va uzoq muddatli vositalar) haqiqiy bahosini belgilash va qayta belgilab berishni ta'minlash<sup>15</sup>. Mulkni baholash – ko'char va harakatdagi mulkni bozor narxdagi ifodasini aks ettirish. Mulkni baholashda bir qator ko'rsatkichlarga ahamiyat berilishi kerak, uni baholayotgan paytda mulkni tasnifiga, daromadliligi va harajatliligiga qarab va eng asosiysi mulkni haqiqatdagi qiymatini narxdagi ifodasini aks ettirib berilishida baholovchi muassasalar asosiy o'rin tutadi.

Mashina va uskunalarni baholash maqsad – bu qiymati to'g'risida xulosa tuzish hisoblanadi.

Baholash faoliyatida “qiymat”, “narx” va shu kabi tushunchalar asosiy hisoblanadi. Qiymat – bu haridor qandaydir buyum yoki ob'ektga almashish uchun tayyor turgan pul yoxud pul ekvivalenti yoki bu gipotetik haridor baholanadigan qiymatga qancha to'lash uchun tayyor bo'lishining o'lchovi. Narx esa – bu avvalgi bitimlarda shunga o'xshash ob'ektlarni harid qilish uchun qancha sarflanganligini

---

<sup>15</sup> Matmurodov F.M. Baholash ishi. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – B . 132.

aks ettiruvchi tarixiy fakt. “Narx” atamasi, shuningdek, sotuvchi so’raydigan narxni belgilashda ham ishlatiladi. Avvalgi bitimlar narxlari va sotuvchining narxlari baholash sanasidagi qiymatning asoslangan o’lchamini namoyon etishi shart emas. Harajatlar – baholanayotgan mulkka o’xshash mulk ob’ektini yaratish uchun zarur bo’lgan chiqimlar o’lchovi hisoblanadi.

Mulkning “Bozor qiymati” tushunchasi ko’chmas mulk sohasida tez-tez ishlatiladi. Biroq shuni nazarda tutish lozimki, ko’chmas mulkning bozor qiymati muayyan holatda foydalaniladigan ta’rifga qarab turli ma’noga ega bo’lishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ashyoviy va boshqa huquqlarning bozor qiymatini aniqlash mulkiy va nomulkiy munosabatlarni tartibga solish mexanizmining muhim tarkibiy qismi sifatida ishtirok etadi.

“Bozor qiymati” tushunchasiga O’zbekiston Respublikasining “Baholash faoliyati to’g’risida”gi Qonunida quyidagicha ta’rif berilgan<sup>16</sup>: “Baholash ob’ektining bozor qiymati deganda eng ehtimol tutilgan narxi tushunilib, unga ko’ra mazkur baholash ob’ekti ochiq bozorda sharoitida bitimning taraflari barcha zarur axborotga ega bo’lgan o’z manfaatlaridan yo’lida oqilona ixtiyoriy ravishda harakat qiladi, bitim narxining baland pastligida esa biron-bor favqulotda holatlar, shu jumladan, taraflardan birining ushbu bitimning ushbu bitimga qo’shilish majburiyati aks etmaydi”.

Baholash faoliyatida ishlatiladigan baho va baholash so’zlariga qo’yidagicha ta’rif qabul qilindi:

- baholash – bu umumiy qabul qilingan tartiblarga mos keladigan va baholashning umumiy qabul qilingan tamoyillarining qo’llanilishi bilan bajariladigan, tegishli tadqiqot yo’li bilan qiymatni belgilash san’atidir;


- baho – bu ob’ektni batafsil o’rganishga asoslangan qiymat haqidagi fikrdir<sup>17</sup>.

---

<sup>16</sup> O’zbekiston Respublikasining 1999 yil 19 avgustdagi “Baholash faoliyati to’g’risida”gi Qonuni. // O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2009 yil 15-son, 178-modda.

<sup>17</sup> Оценка рыночной стоимости машин и оборудования: Учебно-практическое пособие/Академия народного хозяйства при Правительстве Российской Федерации. - М.: Дело, 2003. – С.12-13.

Baholash faoliyatida mulkni baholash aniq tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Umumiy mulk tarkibidan joy oluvchi ko'char mulklarni baholash jarayonining nazariy asosi bo'lib, baholash tamoyillarining mavjud tizimi hisoblanadi. Jahon amaliyotida baholash tamoyillarining to'rtta guruhi ajratiladi:



**1.3-rasm. Jahon amaliyotida baholash tamoyillari<sup>18</sup>**

1.3-rasmda keltirilgan tamoyillarning har biri o'z tarkibiy qismiga ega. Tamoyillar sonining ko'pligi ularning barchasini bir vaqtning o'zida qo'llash mumkinligini anglatmaydi. Har bir holatda asosiy va yordamchi tamoyillar ajratiladi. Bu tamoyillar faqatgina bozor iqtisodiyoti sub'ektlari hatti-harakatlarining asosiy qonuniyatlarini tavsiflaydi va real turmush sharoitlarida bir qator omillar ularning harakatlarini buzishi mumkin.

<sup>18</sup> To'ychiev N.J., Mirxoshimov .A.M., Plaxtiy K.A. Ko'chmas mulkni baholash asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: Adolat, 2000. – B. 30.

### **1.3. Sug'urtalash maqsadida ko'char mulkning bozor qiymatini baholashning bosqichlari va metodologiyasi**


Ko'char mulk bozorining shakllanishi hozirgi iqtisodiy sharoitlarga xarakterli holda qiyin kechmoqda. Ko'char mulk kiradigan mashina va uskunalarning jamiyat rivojlanishining asosiy shart sharoitlaridan biri bo'lib, mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni iste'molchilarga yetkazib jarayonining asosini tashkil etadi. Ko'char mulk bozori keng strukturaviy tuzilmaga ega bo'lib, har bir uskuna guruhlar mulkiy bozorda o'z tuzilishiga ega. Mashina va uskunalarning ma'lum bir qismi o'z maxsus ishlab chiqarish yo'nalishiga asosan, o'zining chegaralangan ochiq bozoriga ega. Mulk bozoriga qaraganda mashina va uskunalar bozori juda harakatchan, bunga mashinasozlik mahsulotlarining yangilanishi va ma'naviy eskirgan mashina va uskunalar o'rniga yangi va yanada mukammal mashinalar chiqarilishi va o'rnatilishi sabab bo'la oladi. Barcha turdagi mulklar singari ko'char mulklar tarkibiga kiruvchi mashina va uskunalarning bozor qiymatini baholashning o'ziga xos bosqichlari mavjud.

Sug'urtalash maqsadida ko'char mulk qiymatini baholash jarayonida baholovchi sakkista bosqichda baholash ishlarini amalga oshiradi:

1. Buyurtmachi bilan baholash ishlarini amalga oshirish uchun shartnoma tuzish.
2. Masalalarni aniqlash.
3. Baholashning rejasini tuzish.
4. Ma'lumot to'plash va tekshirish.
5. Baholashning yondashuv va usullarini tanlash.
6. Oraliq natijalarni kelishtirish va yakuniy xulosasini tayyorlash.
7. Qiymat bahosi natijalari haqida hisobot tayyorlash.
8. Hisobotni taqdim etish va himoya qilish.

Mashina va uskunalarning bozor bahosini aniqlash O'zbekiston Respublikasi "Baholash to'g'risida"gi Qonunga va 15-sonli MBMS "Mashina va uskunalar qiymatini baholash" Mulkni baholash milliy standartlari asosida amalga oshiriladi.

Sug'urtalash maqsadida ko'char mulk tarkibiga kiruvchi mashina va uskunalarning bozor qiymatini baholash tartibini quyidagi 1.4-rasm orqali ifodalash mumkin.



**1.4-rasm. Sug'urtalash maqsadida ko'char mulk ob'yektlarini baholash ishlari ketma-ketligi<sup>19</sup>**

Bugungi kunda mulkni baholash metodologiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosida ko'char va ko'chmas mulklarning bozor qiymati baholanadi. Texnologik mashina va uskunalarini baholashda, asosan, quyidagi yondashuvlardan foydalaniladi:

- xarajat yondashuvi;

<sup>19</sup> O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 15 maydagi "Mashina va uskunalar qiymatini baholash" Mulkni baholash milliy standarti (15-sonli MBMS).

- qiyosiy yondashuv;
- daromad yondashuvi.

Sug'urtalash maqsadida ko'char mulk qiymatini baholash amaliyotida ko'p uchraydigan tasnif va tavsiflarining zarur bo'lgan holatlari quydagilarda ko'rinadi:

a) qisqa muddat ichida korxonaning barcha asosiy fondlarini qayta baholash. Bunda mavjud bo'lgan barcha mashina va uskunalarni turlari bo'yicha gruppalariga ajratilib ulardan model sifatida bitta uskuna tanlab olinadi. Tanlangan uskunaning qayta baholash holatiga har bir qismining qayta tiklash qiymati aniqlanadi va qayta hisoblash koeffitsienti belgilaganda;

b) baholanayotgan ob'yektning qayta ishlab chiqarish qiymati va texnik xarakteristikalarini aniq bo'lganda, taqqoslash yondashuvini qo'llash orqali ob'yektni baholash. Bu holatda baholanayotgan ob'yektning iste'mol qilish xususiyatlaridan kelib chiqib korrektirovkalash qo'llaniladi.

Bu baholash texnologiyasida, tanlangan bazaviy modelni analog sifatida to'g'ri tanlanganligini isbotlash zarurati paydo bo'lishi mumkin<sup>20</sup>.

Tasniflash bosqichlari quydagilarni o'z ichiga oladi:

- baholashning birlamchi ob'yektini aniqlash;
- tasniflash usulini tanlash;
- tanlangan usul chegarasida detallashtirish darajasini aniqlash;
- baholash ob'yektini belgylash.

Baholash ob'yektlarining tasniflash usullari quydagicha amalga oshiriladi:

a) asosiy vositalar bo'yicha – ishlab chiqarish yoki ishlab chiqarishda qatnashmaydigan, korxonaning qaysi bo'limiga kiritilishiga qarab;

b) ob'yektlarning ishlab chiqarish tsikli bo'yicha:

- yaqinda keltirilgan, o'rnatilayotgan va ekspluatatsiyaga tayyorlanayotgan ob'yektlar;
- ekspluatatsiyada bo'lgan (o'tayotgan);
- vaqtinchalik ekspluatatsiyada bo'lmagan, kapital tamirlashda,

---

<sup>20</sup> To'ychiev N.J., Mirxoshimov A.M., Plaxtiy K.A. Ko'chmas mulkni baholash asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: Adolat, 2000. – B. 134.



rekonstruktsiya va modernizatsiyada bo'lgan;

- zaxiradagi;
- sotish yoki boshqa joyga o'tkazilish uchun tayyorlanayotgan;
- ekspluatatsiyadan chiqarilgan va utilizatsiya bo'ladigan;

v) mulkchilik huquqi bo'yicha:

- korxonaning xususiy mablag'lariga tegishli bo'lgan;
- to'lovsiz, vaqtinchalik ishlatishga olingan;
- ijaraga olingan;
- shaxsiy va ijaraga berilgan;

g) mashina va uskunalari olinishi va ishlab chiqarilganligi bo'yicha:

- shu mamlakatning o'zida ishlab chiqarilgan (yangi holatda);
- keltirilgan (import, yangi holatda);
- o'zida ishlab chiqarilgan (ishlatilgan);
- keltirilgan (import, ishlatilgan);
- o'z kuchi bilan tayyorlangan;

d) ishlatish darajasi bo'yicha:

- universal;
- ixtisoslashtirilgan;
- maxsus.

Mashinalar va uskunalarni baholash baholash obyektining aniq nusxasini yaratish yoki uni o'xshashiga almashtirish xarajatlarining jismoniy eskirish chegirib tashlangan holda hisoblashga asoslanadi.

Tiklanish qiymatini aniqlashda barcha sarflar, shu jumladan, transport xarajatlari hamda montaj va sozlash-ishga tushirish ishlari uchun xarajatlar hisobga olinadi.

Transport xarajatlari amalda qilingan sarflarga ko'ra olinadi. Montaj va sozlash-ishga tushirish ishlari uchun xarajatlar tiklanish qiymatining 10 foizi miqdorida olinadi.

Sug'urtalash maqsadida ko'char mulk qiymatini hisoblash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- a) tiklanish qiymatini yoki almashtirish qiymatini aniqlash;
- b) jismoniy eskirishni aniqlash;
- v) bozor qiymatini hisoblash.

Sotishlarni to'g'ridan-to'g'ri qiyoslash usulini qo'llashda baholovchi xuddi shunday ob'ektlarning sotilish narxlariga to'g'risida va/yoki sotish haqidagi takliflari to'g'risida axborotga ega bo'lishi kerak. Xuddi shunday ob'ektning narxi (yoki sotish haqidagi taklifi) baholash ob'ektining qiymatini tayinlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'rin bosuvchining to'liq qiymati tuzatishlar yordamida baholash shartlariga moslashtirilgan analogning narxiga tengdir. Sotishlarni to'g'ridan-to'g'ri qiyoslash usuli analoglarning narxlariga tegishli tuzatishlarni kiritish yo'li bilan quyidagi formulaga binoan amalga oshiriladi:

$$S = S_{an} * K_{fv} / (1 - K_{iz}) * K_1 * K_2 * K_3 * \dots * K_n +/ - S_{dop}, \quad (1.1)^{21}$$

*bunda:*  $S$  – baholash ob'ektining narxi;  $S_{an}$  – analog ob'ektining narxi;  $K_{fv}$  – analoglar narxlarining vaqt omili bo'yicha (ishlab chiqarilgan paytidan boshlab baholash paytigacha) o'zgarishini hisobga oluvchi koeffitsient;  $K_{iz}$  – ishlab chiqarilgan paytidan boshlab baholash paytigacha foydalanish davrida analogning jismoniy eskirishini hisobga oluvchi koeffitsient;  $K_1 * K_2 * K_3 * \dots * K_n$  – baholanayotgan ob'ekt va analogning parametrlari qiymatidagi farqlarni hisobga oluvchi tuzatuvchi koeffitsientlar;  $S_{dop}$  – analog-ob'ekt qo'shimcha qurilmalarning mavjudligi bilan farqlanib turadigan narx.

Baholash ob'ekti va analoglarning jismoniy holatiga tuzatishlar (ishlab chiqarilgan paytidan boshlab baholash paytigacha foydalanish davrida analogning jismoniy eskirishini hisobga oluvchi tuzatish):

$$K_{es} = \frac{(1 - I_{ob'ekt})}{(1 - I_{analog})}, \quad (1.2)^{22}$$

*bunda:*  $K_{iz}$  – eskirishga tuzatish kirituvchi koeffitsient;  $I_{ob'ekt}$  – baholash ob'ekti jismoniy eskirishining koeffitsient ko'rsatkichi;  $I_{analog}$  – analog-ob'ekt jismoniy eskirishining koeffitsient ko'rsatkichi.

Baholashda xorijiy bozorning mashina va uskunalari to'g'risidagi axborotdan foydalanilgan hollarda ham analog-ob'ektlarning narxlariga turgan joyiga qarab tuzatish kiritiladi. Joylashgan joyiga qarab tuzatishni hisoblash ketma-

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasining 15.05.2017 yildagi "Mashina va uskunalari qiymatini baholash" 15-sonli MBMS.

<sup>22</sup> O'zbekiston Respublikasining 15.05.2017 yildagi "Mashina va uskunalari qiymatini baholash" 15-sonli MBMS.

ketligi quyidagicha:

- analogning shartnomaviy narxi aniqlanadi, u analogning sotish (taklif) narxi qo'shuv etkazib berishga (transport xarajatlari) teng;

- import qilishda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar qonun hujjatlari normalariga muvofiq hisoblanadi.

Transport xarajatlari haqiqatdagi tashish xarajatlariga qarab qabul qilinadi. Tashish xarajatlarining haqiqatdagi miqdorini aniqlash yoki hisob-kitob qilishning imkoni bo'lmaganda transport xarajatlari analog-ob'ektni sotish/taklif qiymatining 5 foizi miqdorida qabul qilinadi. Narxlar (sotish va/yoki takliflar) to'g'risidagi axborotdan foydalanganda tuzatishlar quyidagi ketma-ketlikda kiritiladi:

- sotishning noodatiy shartlarini bartaraf etadigan tuzatishlar (etkazib berishning tezlashtirilgan muddatlari, kafolat muddati, chegirmalar, butlash, qo'shimcha xizmatlar va boshqalar);

- QQS mavjudligiga qarab tuzatish kiritish;

- vaqt omili bo'yicha tuzatish kiritish.

Ikkinchi va uchinchi guruhlardagi tuzatishlar doim amalga oshiriladi, birinchisi esa – ularning belgilanganligi va ahamiyatlilikini hisobga olib tanlov asosida amalga oshiriladi.

Analoglarning sotish narxlari (va/yoki takliflari) to'g'risidagi axborotdan foydalanganda baholash ob'ektlarning narxlari (sotish va/yoki takliflar) va asosiy parametri o'rtasidagi nisbatni aniqlashga, xususan darajali bog'liqlikka asoslaniladi. Mazkur me'yor quyidagicha formulada aks ettiriladi:

$$\frac{R_1}{R_2} = \left(\frac{N_1}{N_2}\right)^n, \quad (1.3)^{23}$$

bunda:  $R_1$ ,  $R_2$  – qiyoslanadigan mashinalarning narxlari;  $N_1$ ,  $N_2$  – qiyoslanadigan mashinalarning asosiy parametrlari;  $n$  – texnik qurilmalarning aniq turiga bog'liq bo'lgan darajali koeffitsient (narxni to'xtatib turish koeffitsienti).

$$n = \frac{\ln(P_1 / P_2)}{\ln(N_1 / N_2)} \quad (1.4)$$

---

<sup>23</sup> O'zbekiston Respublikasining 15.05.2017 yildagi "Mashina va uskunalarning qiymatini baholash" 15-sonli MBMS.

Baholash ob'ektining qiymatini baholashda xarajat yondashuvi hisob-kitoblarning quyidagi bosqichlariga rioya etishni o'z ichiga oladi:

- to'liq tiklanish qiymatini yoki almashtirish qiymatini aniqlash;
- baholash ob'ektiga o'rnatilgan, baholash ob'ektining standart butlanishiga (zarur hollarda) kirmaydigan qo'shimcha uskunaning qiymatini aniqlash;
- baholash ob'ektining tovar qiymati yo'qotilishi hajmini aniqlash;
- qo'shimcha uskuna qiymati va jamlangan eskirishning qiymat ko'rsatkichini hisobga olgan holda to'liq tiklanish yoki almashtirish qiymati o'rtasidagi farq sifatida baholash ob'ektining qiymatini aniqlash.

Tiklanish qiymati yoki almashtirish qiymatini aniqlash quyidagi usullardan birini qo'llash orqali amalga oshiriladi:

- almashtirish usuli;
- turdosh ob'ekt narxi bo'yicha hisoblash usuli;
- elementma-element hisoblash usuli;
- qiymatni indeksatsiyalash usuli.

Turdosh ob'ekt narxi bo'yicha hisoblash usulini qo'llagan holda baholash ob'ektining qiymati quyidagi tartibda aniqlanadi: baholanayotgan ob'ekt uchun avvalo tayyorlash texnologiyasi, foydalanadigan materiallari, konstruktsiyalari bo'yicha baholanayotgan ob'ektga o'xshash turdosh ob'ekt tanlanadi. Turdosh ob'ektning narxi ma'lum bo'lishi kerak; turdosh ob'ektni ishlab chiqarishning to'liq tannarxi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi<sup>24</sup>:

$$C_{\text{н.о.г}} = \frac{(1 - H_{\text{дс}}) * (1 - H_{\text{пр}} - K_{\text{р}}) * \Pi_{\text{о.г}}}{(1 + H_{\text{дс}}) * (1 - H_{\text{пр}})} \quad (1.5)$$

*bunda:*  $S_{\text{p.od}}$  – turdosh ob'ektni ishlab chiqarishning to'liq tannarxi;  $Ts_{\text{od}}$  – turdosh ob'ekt narxi;  $N_{\text{дс}}$  – qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi;  $N_{\text{пр}}$  – foyda solig'i stavkasi;  $K_{\text{р}}$  – rentabellik ko'rsatkichi; talabgir mahsulotlar uchun rentabellik ko'rsatkichi 0,25 – 0,35 oralig'ida, o'rtacha talabgir bo'lgan mahsulotlar uchun 0,1 – 0,25 oralig'ida, past rentabelli mahsulotlar uchun 0,05 – 0,1 oralig'ida qabul qilinishiga yo'l qo'yiladi; baholash ob'ektining to'liq tannarxi hisoblab chiqiladi.

<sup>24</sup> O'zbekiston Respublikasining 15.05.2017 yildagi "Mashina va uskunalar qiymatini baholash" 15-сонли MBMS.

Buning uchun turdosh ob'ekt tannarxiga asosiy tavsifga qarab tuzatishlar kiritiladi<sup>25</sup>:

$$C_n = C_{n,0.1} * \left(\frac{G_o}{G_{0.1}}\right) * \left(\frac{K_c}{K_{c/o}}\right) \quad (1.6)$$

bunda:  $S_p$  – baholanayotgan ob'ektni ishlab chiqarishning to'liq tannarxi;  $G_o$  va  $G_{od}$  – tegishincha baholanayotgan va turdosh ob'ektlarning asosiy tavsifi ko'rsatkichi;  $K_s$  va  $K_{s/o}$  – tegishincha baholanayotgan va turdosh ob'ektlarni ishlab chiqarishning turkumliligi koeffitsienti (turkumlilik koeffitsienti ishlab chiqarish turiga bog'liq, u yirik turkumda bo'lsa 1 ga teng, o'rtacha turkumda – 1,1 ga, mayda turkumda – 1,2 ga, bir martalik ishlab chiqarishda – 1,3 ga teng).

Baholanayotgan ob'ektni qayta ishlashning to'liq qiymati (tiklanish qiymati) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi<sup>26</sup>:

$$C_b = \frac{(1 - H_{np}) * C_n}{1 - H_{np} - K_p} \quad (1.7)$$

Elementma-element hisoblash usuli qo'llanganda ishlarning quyidagi bosqichlari amalga oshiriladi: baholash ob'ektning butlovchi uzellari va agregatlari ro'yxati tuziladi; butlovchi uzellar va agregatlar narxiga doir axborot yig'iladi;

Quyidagi formula bo'yicha baholash ob'ektning to'liq tannarxi aniqlanadi:

$$S_p = \sum Ts_e + V, \quad (1.8)^{27}$$

bunda:  $S_p$  – ob'ektning to'liq tannarxi;  $Ts_e$  – butlovchi uzal va agregatning qiymati;  $V$  – tayyorlovchining o'z xarajatlari (yig'ish qiymati, xodimlarning ish haqi va h.k.).

## 1-bob bo'yicha xulosa

1. Olib borilgan tadqiqotlar asosida “sug'urta” atamasiga quyidagicha ta'rif ishlab chiqildi: sug'urta – sug'urtalovchi tomonidan maxsus shakllantirilgan pul fondlari hisobidan yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki va manfaatlari

<sup>25</sup> O'zbekiston Respublikasining 15.05.2017 yildagi “Mashina va uskunalar qiymatini baholash” 15-sonli MBMS.

<sup>26</sup> O'zbekiston Respublikasining 15.05.2017 yildagi “Mashina va uskunalar qiymatini baholash” 15-sonli MBMS.

<sup>27</sup> O'zbekiston Respublikasining 15.05.2017 yildagi “Mashina va uskunalar qiymatini baholash” 15-sonli MBMS.

bo'yicha turli yo'qotishlarga oid risklardan himoyalash.

2. Sug'urtalashdagi eng asosiy omil – bu riskning mavjudligi hisoblanadi. Risk sug'urta munosabatlari paydo bo'lishining asosiy shartidir. Risk bo'lmas ekan, sug'urtaning bo'lishi mumkin emas. Shu sababli sug'urtalovchilar sug'urta ob'ektiga nisbatan sug'urtalashni amalga oshirganida uning turli omillar ta'sirida ob'ektning mavjud holati, darodmadi va qiymatiga zarar etkazilishi holatini baholaydilar.

3. Sug'urtalashdan asosiy maqsad himoyalashdir. Himoyalash orqali sug'urtalash moliya faoliyatining alohida va muhim tarmog'iga aylandi. Bunda sug'urtalash quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi: Sug'urta riskining mavjudligi, Zararlarning muayyan makon va zamonda taqsimlanishi, Sug'urta munosabatlarning qayta taqsimlash xarakteriga ega ekanligi, Sug'urta mukofotlarining qaytarilish xarakteriga ega ekanligi.

4. Mazkur mashina va uskunalarning bozor qiymatini baholash quyidagi qiymat turlarini baholash asosida amalga oshiriladi: bozor qiymati, birlamchi qiymat, qayta tiklash qiymati, qoldiq qiymat, likvidatsion qiymat, utilizatsiya va sug'urta qiymati.

5. Mashina va uskunalarning bozor bahosini aniqlash O'zbekiston Respublikasi "Baholash to'g'risida"gi Qonunga va 15-sonli MBMS "Mashina va uskunalarning qiymatini baholash" Mulkni baholash milliy standartlari asosida amalga oshiriladi.

## **2-BOB. SUG'URTALASH MAQSADIDA "UNIVERSAL TARAQQIYOT TEKSTIL" MCHJ KO'CHAR MULKINING QIYMATINI BAHOLASHNIG HUQUQIY ASOSLARI, OMILLARI VA AXBOROTLARNI TIZIMLASHTIRISH**

### **2.1. Sug'urtalash maqsadida ko'char mulk qiymatini baholashning huquqiy asoslari**

O'zbekistonda baholash faoliyatining vujudga kelishi va rivojlanishi uning huquqiy-me'yoriy asosini yaratish va takomillashtirish bilan bir vaqtda olib borilmoqda. Yaratilgan huquqiy asoslarda baholash faoliyatining tartibga solinishi alohida o'rin tutadi. U "baholovchilar xizmatlarining sifatini oshirishga va ularning baholovchilarning kasbiy hamjamiyati (o'zini-uzi tartibga solish) yoki davlat organlari (davlat tomonidan tartibga solish) tomonidan yohud birgalikda belgilanadigan ma'lum bir mezonlarga mos kelishiga yo'naltirilgan chora-tadbirlar va tartiblar tizimini" o'zida namoyon qiladi.

Bunday tartibga solish quyidagilarni o'z ichiga oladi: baholashga nisbatan yondashuv va talablarni aniqlash, kaysikim ular, odatda baholash andazalarida ifodalanadi; baholovchining mustaqilligi bilan bog'liq bo'lgan uning axloqiy-etik xususiyatlariga nisbatan talablarni aniqlash, qaysikim ular kasb etikasi kodekslarida ifodalanadi; baholovchi kasb maxorati darajasiga va amaliy ish tajribasiga nisbatan talablarni aniqlash, qaysikim ular kasbiy malakaga nisbatan qo'yiladigan talablarda ifodalanadi.

O'zbekistonda baholash faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish maqsadida bir qator me'yoriy hujjatlar: qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining qarorlari, ular negizida tegishli nizomlar qabul qilindi. Jumladan, baholash faoliyatining huquqiy asoslari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 19

avgustdagi “Baholash faoliyati to’g’risida” Qonuni; O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 24 apreldagi “Baholovchi tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirish va ko’rsatilayotgan xizmatlar sifati uchun ularning mas’uliyatini oshirish to’g’risida”gi PQ-843-sonli Qarori; O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 8 maydagi “Baholash faoliyatini litsenziyalash to’g’risida”gi 210-sonli Qarori; O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 28 iyuldagi “Baholash to’g’risidagi hisobotlarning haqqoniyligini ekspertizadan o’tkazish mexanizmini tasdiqlash haqida”gi Qarori; O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 21 dekabrda “Mol-mulkni baholash standartlarini ishlab chiqish, tasdiqlash, ularga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori; O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 8 maydagi 210-sonli qarori shu qaror asosida ishlab chiqilgan “Baholash faoliyatini litsenziyalash to’g’risida” Nizom.

Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko’maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo’mitasining “Mulkni baholash milliy standartlari” to’g’risidagi qarorlari: a) “Baholashning umumiy tushuncha va printsiplari” (1-sonli MBMS); b) “Bozor qiymati baholash bazasi sifatida” (2-sonli MBMS); v) “Mashina va uskunalar qiymatini baholash” (15-sonli MBMS) ham shular jumlasidandir.

Mulk qiymatini baholashni tashkil etishda O’zbekiston Respublikasining “Baholash faoliyati to’g’risida”gi Qonuni alohida o’rin tutadi, unda baholash faoliyati, baholash obyektlari, baholash obyekti qiymataning turlari va ularni qo’llash sohalari tushunchalari bilan bog’liq masalalarning keng doirasi qonun yo’li bilan tartibga solinishi mexanizmlari izohlangan<sup>28</sup>. Ushbu qonunning 7-moddasida “baholash obyekti bozor qiymati” va 8-moddasida “baholash obyekti bozornikidan farqlanuvchi qiymati” tushunchalari mazmuni yoritib berilgan bo’lib, amaliyotda mulk qiymatining bozor qiymati va bozornikidan

---

<sup>28</sup> O’zbekiston Respublikasining 1999 yil 19 avgustdagi “Baholash faoliyati to’g’risida”gi Qonuni. // O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2009 y. 15-son, 178-modda.



farqlanuvchi qiymatini baholashda ushbu moddalar muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Qonunning 9-moddasida baholash standartlari aniq ifodalangan bo'lib, ular quyidagilarni belgilaydi: baholash tushunchalari va tamoyillarini; baholash faoliyatida qo'llaniladigan atamalar va ta'riflarni; qiymat turlariga qo'yiladigan talablarni; boshlang'ich axborotga qo'yiladigan talablarni; baholashni o'tkazish tartibini; baholash usullarini qo'llash xususiyatlarini; baholash natijalarini rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablarni; boshqa talablarni.

Qonunda baholovchining huquqlari, majburiyatlari, mustaqilligi, baholovchi tashkilotlarning tarkibiy tuzilishi, unga bo'lgan talablar va baholash hisobotlari alohida o'rin tutadi.

Baholash faoliyatini tartibga solish bo'yicha qanchalik me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilmasin mamlakatimizda bu faoliyat bo'yicha hali-hanuz kamchiliklar mavjud. Jumladan, baholovchilar tomonidan yetarli bilim malaka ega emasligi, mas'uliyatni etarlicha xis qilmasligi, baholanayotgan obyektlarni yuzaki yondashgan holda baholashi natijasida mulklarning haqiqiy qiymati buzilib, mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Ushbu kamchiliklarning oldini olish, bartaraf etishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 24 apreldagi "Baholovchi tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirish va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati uchun ularning mas'uliyatini oshirish to'g'risida" PQ-843-sonli Qarori muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu qarorda baholanayotgan obyektlarning haqiqiy qiymati va ko'rsatiladigan xizmatlarning sifati xolisona baholanishi uchun baholovchi tashkilotlarning zarur darajadagi mas'uliyati ta'minlash, "Baholash faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq va mustaqil baholash tizimini yanada rivojlantirish, baholash xizmatlarining professional saviyasi hamda sifati oshirish, baholovchi tashkilotlar faoliyatini tartibga solishning samarali usullarini tatbiq etish, baholash ishlarining natijalari va xolisligi bo'yicha ularning mas'uliyatini kuchaytirish, shuningdek, baholovchilar faoliyatini bekor qilish, litsenziya talablariga o'zgartirishlar kiritish, boshqatdan

baholovchi korxonalarga faoliyat yuritish bo'yicha litsenziyalar berish tartibi yo'lga qo'yish masalalari belgilab berilgan<sup>29</sup>.

Mamlakatimiz Prezidentining ushbu qaroridan so'ng baholash faoliyatini tartibga solish va uni nazorat qilishga qat'iy e'tibor berildi. Bir qator me'yoriy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Baholash faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga, Vazirlar Mahkamasining "Baholash faoliyatini litsenziyalash to'g'risida"gi qarori va uning nizomiga va boshqa bu sohaga mas'ul bo'lgan organlar qarorlari va me'yoriy hujjatlariga o'zgartirishlar kiritildi.

Mamlakatimizda baholash faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun faoliyatning ushbu turini litsenziyalash mexanizmi yaratildi. Amaldagi qonunchilikka muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 8 maydagi "Baholash faoliyatini litsenziyalash to'g'risida"gi 210-sonli Qarori bilan "Baholash faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi nizom" tasdiqlandi, unda:

- litsenziya talablari va shartlari; litsenziya olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar;
- arizalarni ko'rib chiqish va litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish tartibi;
- litsenziyani qayta rasmiylashtirish, uning amal qilish muddatini uzaytirish, dublikat berish tartibi;
- litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qilish tartibi;
- litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish, to'xtatish, litsenziyani bekor qilish mexanizmlari va uni ro'yxatga olish tartibi belgilangan.

Yuqorida ko'rsatilgan Nizomning 7-bandiga muvofiq quyidagilar baholash faoliyatini amalga oshirishning litsenziya talablari va shartlari hisoblanadi:

- "Baholash faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, O'zbekiston Respublikasi mulkni baholash milliy standartlari talablariga,

---

<sup>29</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 24 apreldagi "Baholovchi tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirish va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati uchun ularning mas'uliyatini oshirish to'g'risida" PQ-843-sonli Qarori. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to'plami, 2008 y, 18-son, 145-modd.

shuningdek, boshqa qonun hujjatlariga rioya qilish;

- litsenziya olishda ushbu Nizomda nazarda tutilgan miqdorda to'liq shakllantirilgan ustav kapitalining mavjudligi;

- fuqarolik javobgarligi sug'urta polisining mavjudligi;

- faoliyatning faqat ushbu Nizomda nazarda tutilgan turini amalga oshirish;

- baholovchi tomonidan baholash faoliyatini faqat bitta baholovchi tashkilotda amalga oshirish. Bunda baholash faoliyati baholovchi tomonidan boshqa baholovchi tashkilotda faqat u baholash faoliyatini amalga oshirgan baholovchi tashkilot bilan tuzilgan mehnat shartnomasi (kontrakti) yoki fuqarolik-huquqiy tisdagi shartnoma to'xtatilgandan, bekor qilingandan yoki uning muddati tugagandan keyin amalga oshirilishi mumkin;

- baholovchi tashkilot shtatida ushbu Nizomda nazarda tutilgan miqdorda baholovchilarning mavjudligi;

- baholashni o'tkazishda olingan axborotning maxfiylikni ta'minlash;

- baholashni o'tkazish bo'yicha shartnoma majburiyatlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish;

- baholovchi tashkilotning rahbari lavozimiga faqat baholovchini tayinlash;

- baholash faoliyatini amalga oshirishda baholash faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarida belilangan tartibda mustaqillikni ta'minlash;

- baholovchining malaka sertifikatiga ega bo'lgan shaxs (shaxslar) tomonidan baholash to'g'risida haqqoniy hisobot tuzish;

- baholovchi tashkilotda o'z baholovchilari ishlari sifatini nazorat qilishning tasdiqlangan ichki qoidalar mavjudligi;

- litsenziyalovchi organni nomi yoki joylashgan joyi (pochta manzili) o'zgarganligi to'g'risida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan boshlab 10 kun muddatda xabardor qilish;

- yarim yilda bir marta O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasiga belgilangan shaklda baholash faoliyati to'g'risida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni

rivojlantirish davlat qo'mitasi talabiga ko'ra baholashni o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan boshqa axborotlarni taqdim etish.

Baholash faoliyatining qat'iy belgilangan tartib asosida olib borilishi baholash faoliyati sifatining asosiy me'zoni hisoblanadi. Bunda mulkni baholashning milliy standartlari muhim rol o'ynaydi. Mulkni baholash jarayonida bu milliy standartlarga amal qilish uchun baholovchilar tomonidan yaxshi bilim, tajribaga ega bo'lib bilan birga ushbu standartlarni to'liq va mukammal o'rganib, o'zlashtirgan bo'lishlari talab etiladi. Shu sababdan hozirgi kunda bu sohada faoliyat olib borayotgan baholovchilarga milliy standartlarni o'qitish va o'rgatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalari hamda infratuzilmaviy tashkilotlari tomoindan o'quv darslari tashkil qilinib kelinmoqda.

Baholash standartlari baholovchilar o'z mahsulotini u asosida baholashi lozim bo'lgan sifatning minimal darajasini ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida baholash faoliyatining me'yoriy-huquqiy asosi baholashning xalqaro standartlari talablari bilan uzviy bog'langan.

Bugungi kunda O'zbekistonda mulkni baholashning xalqaro me'yorlari talablariga mos keladigan ko'char mulklarni baholashning alohida tizimi, me'yorlari shakllantirilmaganligi sababli sug'urtalash maqsadida ko'char mulk bozor qiymatini baholashda 15-sonli MBMS "Mashina va uskunalar qiymatini baholash" Mulkni baholash milliy standartidan foydalanib kelinmoqda.

Respublikamizda baholash faoliyatini tartibga soluvchi mustahkam huquqiy baza shakllantirilgan, baholash xizmatlari bozorini rivojlantirish, amalga oshiriladigan baholash ishlarining natijalari va xolisligi uchun javobgarlikni oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar qilingan bshchligiga qaramay bir qator muammo va kamchiliklar professional baholash xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishga hamda baholovchi tashkilotlarga bo'lgan ishonchni oshirishga to'sqinlik qilayotganligi sababli baholash xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish, baholovchilarning professionallik darajasi va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini

oshirish, mazkur sohada bajariladigan ishlarning xolisligi va sifati ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 yundagi "Baholash xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3764-sonli Qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga binoan:

a) baholash faoliyatini litsenziyalash va baholash tashkilotlari ustav kapitali (Ustav jamg'armasi)ning eng kam miqdoriga bo'lgan talab bekor qilindi;

b) baholovchi tashkilotlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Akkreditatsiya markazida (keyingi o'rinlarda – Markaz) akkreditatsiya qilish tartib-taomillari joriy qilindi;

v) O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining:

- baholovchining malaka sertifikatini berish funksiyasi – Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim markaziga;

- mulkni baholashning yangi standartlarini tasdiqlash, shuningdek, amaldagi mulkni baholash standartlariga o'zgartirish, qo'shimchalar kiritish va o'z kuchini yo'qotgan deb topish funksiyasi – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligiga o'tkazildi.

Shuningdek, qaror asosida quyidagilar belgilab quyildi:

- 2018 yil 1 iyuldan boshlab Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim markazida baholovchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha, imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan taqdirda belgilangan namunadagi sertifikatlar berilgan holda, maxsus kurslar tashkil etish joriy etilishi;

- baholovchi tashkilot ustav kapitali (ustav jamg'armasi)ning kamida 51 foizi mazkur baholovchi tashkilotning bitta yoki bir nechta shtatdagi baholovchisiga tegishli bo'lishi lozimligi;

- 2019 yil 1 yanvaridan boshlab baholovchi tashkilotning rahbari faqat birinchi yoki oliy toifadagi baholovchi bo'lishi mumkinligi;

- baholovchi, agar u boshqa baholovchi tashkilot shtatida turgan bo'lsa, baholovchi tashkilot tomonidan fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida baholash

ishlarini olib borishga jalb qilina olmasligi;

- buyurtmachi yoki boshqa shaxslarning, agar bu baholash natijasining ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, baholovchining faoliyatiga aralashuviga, jumladan, baholash ob'ektini baholashda aniqlanishi yoki ta'riflanishi lozim bo'lgan masalalar doirasini cheklashga yo'l qo'yilmasligi;

- baholovchi ob'ektiv baholashni olib borishga monelik qiladigan holatlar yuzaga kelganligi oqibatida baholashni o'tkazishda ishtirok eta olmasligi haqida buyurtmachiga yoki mehnat shartnomasini tuzgan baholash tashkilotiga ma'lumot berishi shartligi;

- baholash haqida hisobotning haqqoniyligini ekspertiza qilish uchun faqat birinchi yoki oliy toifa baholovchilar jalb etilishi mumkinligi;

- davlat mulkini, shuningdek, davlat tomonidan sotib olinadigan ob'ektlarni baholash uchun baholovchi tashkilotni tanlash davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi;

- Baholovchi tashkilotlarga ko'rsatiladigan xizmatlar qiymatining 15 foizidan kam bo'lmagan miqdordagi dastlabki to'lovsiz xizmatlar ko'rsatishga ruxsat etilganligi;

- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi har yili ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini shakllantirishda baholash xizmatlari bozorining malakali kadrlarga bo'lgan real ehtiyojini hisobga olishi zarurligi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi Davlat raqobat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Baholovchi tashkilotlar uyushmasi, O'zbekiston Respublikasi baholovchilari jamiyati va boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda amaldagi mulkni baholash milliy standartlarini tanqidiy qayta ko'rib chiqish, ularni zamonaviy talablarga muvofiqlashtirish va xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish, etishmaydigan mulkni baholash standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, shuningdek, eskirganlarining kuchini yo'qotish choralarini ko'rishi.

## **2.2. Sug'urtalash maqsadida "Universal taraqqiyot tekstil" MChJ uskunalarining bozor qiymatiga ta'sir etuvchi omillar tasnifi va tavsifi**

Ko'char mulk bozori ko'chmas mulk bozoriga nisbatan faol harakatda bo'luvchi bozor hisoblanadi. Bu esa undagi aktivlarning turli maqsadlardagi foydalanishlarida bozor qiymatlarini baholash zaruriyatini yanada kuchaytiradi. Bunda ko'char mulk turi va tavsifiga ko'ra o'z bahosi va samarasiga ega ekanligi muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Bunga esa bozordagi turli xil omillarning ta'sir ko'rsatishi sabab bo'ladi. Ko'char mulklar bilan istalgan joyda, istalgan vaqtda iqtisodiy va boshqa faoliyatni amalga oshirish mumkinligi ulardan yuqori darajada foydalanish va qo'shimcha daromad olish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Bunda ularning ish faolligini va samaradorligini saqlash va ta'minlashda sug'urtaning o'rni beqiyosdir.

Sug'urtalash ko'char mulklardan ishonchli va maqsadli foydalanishni ta'minlashdagi muhim himoya vositasi hisoblanadi. Shu sababli iqtisodiyotda resurslarni ko'char mulk bozori orqali tarmoqlararo taqsimlash va qayta taqsimlashning samarali jarayoni amalga oshirilishini kuzatish mumkin. Ko'char mulk bozori orqali yuz beruvchi vositalar harakati bir qancha omillarga bog'liq holda kechadi. Ulardan asosiylari quyidagilar:

- bozorning daromadlilik darajasi;
- bozorning soliqqa tortilganlik darajasi;
- kapitalni yo'qotish yoki kutilgan daromadni olish riski;
- bozorni tarkibiy va funktsional tashkil etish samaradorligi va uni tartibga solish darajasi;
- investor huquqlari himoyasi va manfaatlar (qiziqishlar)i ta'minlanganlik darajasi;
- bozor qatnashchilarida bozordagi kabi ma'lumotlar ochiq-oydinlik darajasi va boshqalar.

Sug'urtalash maqsadidagi ko'char mulklarning bozordagi harakatining faolligi, samaradorligi va daromadlilikiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu esa

ularning bozor qiymatini belgilashda ham muhim o'rin tutishiga olib keladi. Shu sababli ko'char mulklarning bozor qiymatini baholashda uning qiymatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, aniqlash, tahlil qilish hamda, zarur hollarda, ulardan foydalanish yoki ularni boshqarish choralarini ham ko'rish zarur hisoblanadiki, quyida ularning bir qanchasi keltirilgan.

Sug'urtalash maqsadida ko'char mulkning bozor qiymatini aniqlashda baholash jarayonining turli bosqichlarida vujudga keladigan qiymatga ta'sir etuvchi omillar mavjud. Narxga ta'sir etuvchi barcha omillarni sub'ektiv va ob'ektiv omillarga bo'lishimiz mumkin.

Sub'ektiv omillarga bitim tizish vaqtidagi xaridor, sotuvchi va vositachi shaxslarning xulq-atvori, kayfiyati, halolligi, temperament, shaxsiy o'ziga xos xususiyatlari va boshqa psixologik omillar kiradi.

Ob'ektiv omillar o'z ichiga, asosan, iqtisodiy omillarni olib, ular ma'lum bitimni tuzishda mulkning o'rtacha qiymatini aniqlashga yordam beradi.

Ko'char mulkning qiymatini baholashni belgilab beruvchi asosiy iqtisodiy omillar quyidagilardan iborat:

- talab;
- baholanayotgan ko'char mulkning hozirgi va bo'lajak foydasi;
- ana shunday ko'char mulkni barpo etish xarajatlari;
- ana shunday ko'char mulkka bo'lgan talab va taklifning o'zaro nisbati;
- ko'char mulkdan daromadlar olish xatari;
- ko'char mulkni nazorat qilish darajasi va uning likvidlilik darajasi.

Ko'char mulkning qiymatini baholashda eng asosiy omil bu ularning eskirish darajasidir. Chunki, ular tez yangilanadi, eskirish darajasi ham intensiv ravishda hisoblanishi mumkin. Bu erda yuqorida ta'kidlanganidek, baholovchi mashina va asbob-uskunalarining texnik va ma'naviy eskirishini to'g'ri hisob-kitob qilishi uchun zarur texnik bilimlarga yoki ekspert yordamiga tayanadi.

Ko'char mulk qiymatini baholashda nomoddiy aktivlar ham inobatga olinishi mumkin. Jumladan, uning tovar belgisi, ishlab chiqaruvchisi, nou-xau va boshqalar.



Ko'char mulk qiymatini baholashda tarmoq omillari ham muhim rol o'ynaydi. Ularga ishlab chiqarish va operatsion texnologiya, ishlab chiqarish tashkiloti, ishlab chiqarish seriyasi, qo'llanilgan material, xom ashyolar, ishlab chiqarishda qo'llanilgan standartlar va texnik talablar, korxonalar o'rtasidagi aloqalar va boshqa omillarni misol qilishimiz mumkin.

Shuningdek, ijtimoiy omillar ham ko'char mulk qiymatiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Ular, asosan, aholining xususiyatlari bilan namoyon etilgan. Jumladan, hudud bo'yicha aholi soni, oilalardagi bolalarning o'rtacha soni, aholining yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi va h.k.lar kiradi. Bularning barchasi mol-mulkka bo'lgan potentsial talab va uning tarkibidan dalolat beradi.

Agarda ko'char mulk sifatida sug'urtalanayotgan avtotransport vositalarining qiymatini baholashga unga ta'sir ko'rsatuvchi siyosiy omillar ichida yuk tashish avtotransportlari bozor qiymatining davlat tomonidan tartibga solinishini alohida keltirib o'tish mumkin bo'ladi. Davlat tomonidan tartibga solish sohasiga quyidagilar kiradi:

- yuk tashish avtotransportlari xizmatlaridan foydalanilishi darajasi;
- yuk tashish avtotransportlari xizmatlaridan foydalanilishi meyorlari;
- yuk tashish avtotransportlari xizmatlaridan foydalanilish yo'nalishlari;
- soliq siyosati;
- yuk tashish avtotransportlarining qiymatiga tasir ko'rsatuvchi maxsus huquqiy me'yorlar (ijara stavkalarining me'yoriy belgilanishi, mulkchilik huquqlarining chegaralanishi, atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlar, asosiy kapitalga investitsiyalar va h.k.).

Tabiiy omillarning ta'siri ham tabiiy, ham sun'iy shart-sharoitlar, ya'ni hududning iqlim sharoitlari (yog'ingarchilik, harorat, namlik), topografiya, tuproqning xususiyati, zaharli elementlar, avtomobil va boshqa transport yo'llarining holati va sifati, baholanayotgan mol-mulk joylashgan hududda yuk tashish avtotransportlarining bozor qiymati holati va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqiladi.

Ko'char mulk bozorining o'ziga xos xususiyatlaridan biri unda nisbatan

yuqori darajadagi riskning mavjudligi hisoblanadi. Bu esa ko'char mulklarni doimo sug'urtalab borish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Risk – bu daromadlar olishning yoki olmaslikning noaniqligi. Kutilayotgan risk darajasi investitsion kapitaldagi daromadlar stavkasida hisobga olinadi: kutilayotgan risk darajasi qancha yuqori bo'lsa, investitsion kapitalga talab etilayotgan daromad stavkasi shuncha yuqori bo'lishi kerak.

Talab etilayotgan daromadlilik stavkasini aniqlashning mazkur yondashuvi ko'char mulkka qilinadigan investitsiya uchun ham, hamda an'anaviy moliyaviy aktivlarga qilinadigan investitsiya uchun ham umumiy hisoblanadi. Risk uchun to'lovni hisoblash asosi bo'lib makro darajadagi boshqarilmaydigan riskni yoki tarmoq riskini aks ettiradigan tizimli riskni aniqlash hisoblanadi.

Sug'urtalash maqsadida ko'char mulk qiymatini baholashdagi risk darajasining mikdoriy tahlili 3 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Daromadlilik stavkasini taqsimlash chastotasini aniqlash –daromadlilikni o'rtacha stavkasi.
2. Boshqarilmaydigan riskni o'lchovi sifatida standart og'ishni aniqlash.
3. Daromad birligiga tushadigan riskni nisbiy o'lchovi sifatida kovariatsiyani aniqlash.

Ko'char mulk bozoriga makroiqtisodiy xatar omillari sezilarli darajada ta'sir etadi.

Makroiqtisodiy xatarning asosiy turlari quyidagilar hisoblanadi:

- inflyatsiya xatari;
- iqtisodiy o'sish sur'atlarining o'zgarishi bilan bog'liq xatar;
- foiz stavkasi miqdorining o'zgarishi bilan bog'liq xatar;
- valyuta kursining o'zgarishi bilan bog'liq xatar;
- siyosiy xatar.

Inflatsiya xatari – bu narxlar o'sishi sur'atlarining bashorat qilib bo'lmaydigan o'zgarishi xatari. Mulk bozoridagi sarmoyador narxlarning inflatsion o'zgarishini qoplovchi daromadni olishga intiladi. Yuqori yoki bashorat qilinmaydigan inflyatsiya bozor faoliyatining kutilayotgan natijalarini yo'qqa

chiqarishi mumkin bo'lib, iqtisodiyotdagi daromadlarning qayta taqsimlanishini ta'minlaydi va tadbirkorlik xatarini oshiradi. Natijada ko'char mulkning real qiymati pasayadi.

Baholash jarayonida ko'p yillik, joriy va bo'lajak (bashorat qilinayotgan) ma'lumotlar taqqoslanadi. Ko'char mulkning turli yillarda olingan qiymati faqat, agar pul birligining qiymati o'zgarmagan bo'lsa, taqqoslanishi mumkin. Biroq, amalda pul birligining qiymati deyarli har yili (odatda, ortish tomonga) o'zgaradi. Narxlar darajasi turli davrlar uchun narxlar o'zaro nisbatining o'lchovi hisoblangan indeks ko'rinishida o'lchanadi.

Iste'mol qilinadigan tovarlarning asosiy guruhi bo'yicha hisoblab chiqilgan narxlar indeksiga joriy yildagi narxlar darajasining ko'rsatkichi sifatida qaralishi mumkin.

Baholash jarayonida, muvaqqat (o'zgarmas) kattalikdan tashqari, nisbiy kattaliklar ham, masalan, diskont stavkasi hisoblab chiqiladi (%da). U ham nominal yoki haqiqiy kattalik sifatida aniqlanishi mumkin. Agar narxlarning inflatsion o'sish sur'atlari mamlakatda 15 foizdan yuqori bo'lsa, qayta hisoblashni quyidagi Fisher formulasini qo'llash orqali amalga oshirish tavsiya etiladi:

$$R_r = \frac{R_n - i}{1 + i}, \quad (2.1)$$

bunda:  $R_r$  – daromad (diskont)ning real stavkasi;  $R_n$  – daromad (diskont)ning nominal stavkasi;  $i$  – inflatsiya indeksi.

Iqtisodiy o'sish sur'atlarining o'zgarishi bilan bog'liq xatar. Bozor iqtisodiyotining tsiklliligi hisob-kitoblarda iqtisodiy rivojlanishning umumiy holati va iqtisodiy o'sishning yaqin kelajakda kutilayotgan sur'atlarini hisobga olish zaruratini belgilab beradi

Ishdagi faollik susaygan davrlarda olinadigan foyda miqdori ham pasayadi va bankrot bo'lish ehtimoli oshadi. Iqtisodiyot rivojlanishining umumiy iqtisodiy qonuniyatlarini muayyan korxonani tahlil qilishda va prognozlarni tuzishda hisobga olish zarur. Bunda asosiy axborot manbalari bo'lib hukumat dasturlari va prognozlar, axborot, konsalting tuzilmalari, hokimiyat va boshqaruv organlarining tahliliy sharhlari, davriy iqtisodiy matbuot xizmat qiladi.

Foiz stavkasi miqdorining o'zgarishi bilan bog'liq xatar. Foiz stavkasining harakati amalga oshirilayotgan makroiqtisodiy tartibga solish chora-tadbirlariga munosabat bildirish hisoblanadi va u investitsion faollikni rag'batlantirishga olib kelishi ham, iqtisodiyotdagi umumiy sarf-xarajatlarning oshishiga to'sqinlik qilishi ham mumkin. Baholash jarayonida diskont stavkalarini, sarmoyalash koeffitsientlarini, bozor multiplikatorlarini hisob-kitob qilishda tizimli va tizimsiz xatar omillari o'lchanadi. Ushbu hisob-kitoblarda xatarsiz stavka sifatida, odatda, davlatning uzoq muddatli qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromad stavkalari qabul qilinadi.

Bunda asosiy axborot manbalari bo'lib, konsalting tuzilmalari va davriy iqtisodiy matbuot xabarlari ishtirok etadi.

Valyuta kursining o'zgarishi bilan bog'liq xatar. Valyutalar kurslari iqtisodiy va siyosiy omillar ta'siri ostida o'zgaradi. Valyuta kursining o'zgarishi mamlakatda chakana narxlarning o'zgarishini aniq aks ettirmaydi, ayni paytda, baholash jarayonida moliyaviy axborotga inflyatsion tuzatishlar kiritish, odatda, milliy valyuta kursining o'zgarib turishi bo'yicha amalga oshiriladi.

Muayyan yilga mo'ljallangan sotuvlar hajmlari prognozini tuzishda bashorat qilinayotgan inflyatsiya darajasini hisobga oluvchi hisob-kitoblarni amalga oshirish lozim.

Asosiy axborot manbalari bo'lib hukumat dasturlari, axborot, konsalting tuzilmalari va davriy iqtisodiy matbuot xabarlari ishtirok etadi.

Siyosiy xatar – bu siyosiy voqealar tufayli aktivlarga nisbatan yuzaga kelgan tahdid. Siyosiy xatar omillari, odatda, yirik firmalar yoki tahliliy agentliklar tomonidan amalga oshiriladigan ekspert baholari asosida aniqlanadi.

Biz bitiruvmalakaviy ishimizda o'rganilayotgan ob'ektning, ya'ni "ISAEV HAMKORLIGI" mustaqil baholash kompaniyasi tomonidan Yakkabog' shahri, Cho'mich MFY, "To'qimachi" ko'chasi 2-uyda joylashgan "Universal taraqqiyot tekstil" MChJga tegishli uskunalarning sug'urtalash maqsadidagi bozor qiymatini baholash ishlari amalga oshirilganida uning qiymatiga ta'sir etuvchi omillarning tahlil ishlari amalga oshirilganligiga amin bo'ldik. Bunda baholash kompaniyasi

tomonidan malga oshirilgan baholash ishlari bo'yicha tuzilgan hisobotga ko'ra, baholanayotgan ob'ekt qiymatiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha quyidagilar keltirilgan:

- baholovchi, baholash to'g'risidagi hisobotda ko'rsatilgan omillardan tashqari, baholash natijalariga ta'sir etadigan yashirin omillarning yo'qligini nazarda tutadi. Baholovchi tashkilot bunday omillarning mavjudligi va ularni aniqlash zaruriyati uchun javobgar bo'lmaydi;

- baholovchi baholash to'g'risidagi hisobotni tayyorlashda foydalangan dastlabki ma'lumotlar ishonchli manbalardan olingan bo'lishi va haqqoniy deb hisoblanishi lozim. Baholovchi tashkilot ularning mutlaqo aniqligini kafolatlay olmaydi, shu bois baholash to'g'risidagi hisobotda axborot manbalariga havolalar keltirilishi lozim;

- baholovchi tashkilot ushbu sanadan keyin vujudga kelishi va baholash ob'ektining bozor qiymatiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan iqtisodiy, yuridik va boshqa omillarning o'zgarishi uchun hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi;

- yaxshilashlar bozorning xozirgi talablariga muvofiqligining muqarrar omili sanalgan elementning yo'qligi bilan bog'liq va sof operatsion daromad yo'qotishlarining joriy qiymatlari bilan yaxshilash elementining yo'qligi bilan bog'liq har qanday xarajatlar yig'indisiga teng bo'lgan bartaraf etib bo'lmaydigan funksional eskirish;

- tashqi eskirish. Tashqi eskirish – baholash ob'ektining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, qonunchilikning o'zgarishi, atrof-muhit o'zgarishi kabi omillar natijasida o'z qiymatini yo'qotishini anglatadi. Baholash sanasida baholash ob'ektiga nisbatan bunday omillar aniqlanmaganligi sababli tashqi eskirish qiymati aniqlanmadi.

“ISAEV HAMKORLIGI” mustaqil baholash kompaniyasi tomonidan baholanayotgan ko'char mulkning bozor qiymatiga ta'sir etuvchi omillar quyidagicha guruhlangan:

**Universal taraqqiyot tekstil” MChJga tegishli uskunalarning sug’urtalash maqsadidagi bozor qiymatiga ta’sir etuvchi omillar<sup>30</sup>**

| <b>№</b> | <b>Omillar guruhi</b> | <b>Oldi-sotdi bitimlari uchun taqqoslash elementlari</b>                                                                      |
|----------|-----------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1        | Mulkiy huquqlar       | 1.1. Ob’ektning ijara shartnomasi bo’yicha qo’shimcha yuklamalari.<br>1.2. Servitutlar va ijtimoiy qo’shimcha yuklamalar.     |
| 2        | Moliyalash shartlari  | 2.1. Sotuvchining xaridorni imtiyozli kreditlashi.<br>2.2. Pul mablag’lari ekvivalenti bilan to’lov.                          |
| 3        | Alohida shartlar      | 3.1. Sotuv narxining ijara stavkasi bilan bozorga oid bo’lmagan aloqasi.<br>3.2. Rivojlanish uchun subsidiya yoki imtiyozlar. |
| 4        | Bozor shartlari       | 4.1. Narxlarning vaqtda o’zgarishi.<br>4.2. Taklif narxining bitim narxidan farqi.                                            |
| 5        | Jismoniy tavsiflari   | 5.1. Hajmiy-rejalashtirish va konstruktiv tavsifi.<br>5.2. Eskirishi va ularni ta’mirlashga bo’lgan ehtiyoj.                  |

Umuman olganda, “ISAEV HAMKORLIGI” mustaqil baholash kompaniyasi tomonidan tayyorlangan hisobot ma’lumotlari Universal taraqqiyot tekstil” MChJga tegishli uskunalarning sug’urtalash maqsadidagi bozor qiymatini aniqlashda unga ta’sir etuvchi omillarning to’liq o’rganilganligini ko’rsatadi.

**2.3. Sug’urtalash maqsadida ko’char mulk baholash obyekti sifatida tahlili; rusumi, eksplatatsiya holati va muhiti, indentifikatsiyalash, ekspertizasi hamda axborotlar tizimini shakllantirish**

Sug’urtalash maqsadida ko’char mulk obyektni ekspluatatsiya qilish obyektlarni ekspluatatsiya qilish, ularga xizmat qilish va ta’mirlashlarni nazarda tutadi. Ko’char mulk obyektining ekspluatatsiyasi boshqarish tizimida ko’p qirrali funktsiya bo’lib, quyidagi yo’nalishlarni o’z ichiga oladi: mashina va uskunalari ekspluatatsiyasi, moddiy hisob, yong’inga qarshi va xavfsizlik texnikasi, kommunikatsiyalar boshqaruvi, chiqindilar utilizatsiyasi va qayta ishlovi, ko’chishlar, o’zgarishlar va qayta tayyorlashlar, avariya holatlarni bartaraf qilish, ekspluatatsiya va joriy ta’mirlashni ta’minlash, jihozlash va obyekttni qo’riqlash.

<sup>30</sup> “ISAEV HAMKORLIGI” mustaqil baholash kompaniyasi tomonidan sug’urtalash maqsadida baholanayotgan ko’char mulk bo’yicha tayyorlangan hisobot ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Ko'char mulk obyekti ekspluatatsiyasi jarayoniga xos muhim jihatlardan biri shuki, kutilmagan paytlarda ham avariya holatlari kelib chiqishi mumkin, negaki hech kim yong'indan, suv bosishidan va boshqa noxushliklar ro'y berishidan yoki fors-major holatlari (suv toshqini, er silkinishi va h.k.)dan kafolatlanmagan. Ko'char mulkda ro'y bergan avariya holatlarini bartaraf qilish bo'yicha ishlarni rejalashtirishning yagona shakli mavjud emas; har bir aniq hodisada u yoki bu obyekt uchun mas'ul xodim tayinlanadi va u amalga oshirilishi kerak bo'lgani ishlar rejasini va yo'riqnomani ishlab chiqiladi.

Ko'char mulk texnik nosozliklari oqibatlarini bartaraf etishda quyidagilarga rioya qilish lozim: barcha metal konstruksiyalarni qizib ketish orqali nosoz holga kelganini tekshirish; yonuvchan buyumlar etkazgan zararlarni aniqlash; namlanish va emirilish ta'siriga moyil bo'lgan barcha mashina va uskunalari hamda ko'char mulk obyektining boshqa tizimlarini ko'zdan kechirish; elektr o'tkazgich va boshqa o'tkazgichlarda nosozliklar (maksimal kuchlashishda) mavjudligini tekshirish, isitish uskunalarini tekshirish; tizimlarda mog'or va boshqa zararli moddalar paydo bo'lgan holatda ularni tozalash va h.k.

Ko'char mulkka xizmat ko'rsatish va ta'mirlash. Amaliyotda kuzatilishicha, ko'pchilik ko'char mulk obyekti mulkdorlari ulardan foydalanishni tashkil etish hamda ta'mirlashga etarlicha mablag' ajratmaydilar. Buning sabablari ko'p, masalan doimo vaqtinchalik amalga oshiriladigan maqsadlarga diqqatni qaratish va bunday munosabatlar natijasida yuzaga kelgan oqibatini to'g'ri baholamaslik va natijada uning oqibatlarni to'g'rilash uchun ketadigan xarajatlar deyarli har doim xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari qiymatidan yuqori bo'lishi.

Xizmat ko'rsatish – bu ko'char mulk obyektlari ekspluatatsiyasining me'yoriy muddatini ta'minlash uchun bajariladigan ishlar majmuidan tashkil topadi. Ular obyekt qiymatining o'sishiga olib kelmaydi, ammo, alohida qismlarning ishdan chiqishi yoki nurashi (eskirishi)ning oldini oladi. Xizmat ko'rsatish maqsadlaridan biri – (resurslar to'la emirilishi oqibatida) nosozliklar ro'y berishidan oldinroq ogohlantirish.

Ta'mirlash – bu ko'char mulk obyektining buzilishi yoki eskirishini qayta

tiklash va kamchiliklarni bartaraf etish orqali ko'char mulklarni odatiy foydalanish holatga keltirish ishlari. Ta'mirlashning maqsadi-jismoniy qayta tiklashdir. Joriy ta'mirlash ishlari mayda va yirik turlarga bo'linadi. Mayda ta'mirlash ishlari 1-2 kun davom etadi va ko'char mulk obyektining normal ekspluatatsiyaviy holatini ta'minlaydi. U obyektning xizmat muddatini uzaytirmaydi va qiymatini oshirmaydi. Yirik joriy ta'mirlash ishlari (2 kundan ortiq) ko'char mulk obyektining xizmat muddatini uzaytiradi, ammo, qiymatini oshirmaydi.

O'zgartirish – bu ko'char mulk obyekti tarkibiga kiruvchi asosiy fondlarni ularni analoglari bilan almashtirish jarayonidir. O'zgartirishga mansub fond bo'lib, yaroqsiz holga kelgan yoki ma'naviy eskirgan asosiy fondning o'rnini bosuvchi asosiy (modifikatsiyalashgan, takomillashgan, yangi avlod) fondlar xizmat qiladi.

Ko'char mulk obyektiga xizmat qilishning asosiy maqsadi – bu obyektidan to'g'ri foydalanishni ta'minlashdir; u quyidagi aniq vazifalarni o'z ichiga qamrab oladi: kundalik tozalashlar (namunaviy ko'rinishni saqlab turish uchun); mulk obyektidagi mayda kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf qilish; hayoti davomiyligining minimal xarajatlari asosida yirik ta'mirlash ishlarini yo'lga qo'yish; ekspluatatsiya va xizmat ko'rsatishga sarflanadigan barcha xarajatlarni qisqartirish, hamda optimallashtirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish; ko'char mulk obyektini ta'minlovchi texnik xizmatlarning ratsional ishlashi (ishonchlilikni ta'minlashda); obyektning xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari xarajatlarini doimiy nazorat, hamda tahlil qilish; ishlar bajarilishi grafigini tuzish va ijrosini nazorat qilish; ko'char mulk obyekti uskunalarini to'raligicha va alohida uskunalar faoliyati to'g'risida doimiy ma'lumotlar to'planishini ta'minlash.

Amaliyotda ko'char mulkni ta'mirlash ishlari quyidagilarga bo'linadi: zarurat bo'yicha ta'mirlash; davriy ta'mirlash (masalan, normativ bo'yicha belgilangan muddatlarda mashina va uskunalar uzellarini o'zgartirish); uskunalarni profilaktik tekshirish; avariya holatida ta'mirlash, xizmat ko'rsatish; ehtiyojdan kelib chiqib ta'mirlash (ayrim detallarni almashtirish).

Amalda ko'char mulk obyektidan foydalanish ishlari majmuyi bir qancha xarajatlarni talab qiladi:



- ekspluatatsiya (ko'char mulk obyektining butun foydali xizmat muddati mobaynida) xarajatlari;
- vazifali (obyektni qo'riqlash, saqlash, ta'mirlash va h.k. bilan band bo'lgan personal uchun) xarajatlar;
- texnik xizmatlar va uskunalarni tozalash uchun xarajatlar;
- ko'char mulk obyektini ta'mirlash va tiklash uchun (agar ko'char mulk obyektining yoki uning bir qismining xizmat muddati tugagan bo'lsa) xarajatlar.

Yuqorida keltirilganlardan tashqari, ko'char mulk obyektiga egalik qilish deb ataluvchi, obyektni tasarruf qilish bilan bog'liq o'zgartirishlar va yaxshilanishlarga sarflanuvchi xarajatlarni ham hisobga olinishi lozim.

Sug'urtalash maqsadida ko'char mulklarning bozor qiymatini baholash jarayonida ularni obykti sifatida tahlil qilishda tahlilga yordam beruvchi zaruriy axborotlarga ega bo'lish talab etiladi.

Sug'urtalash maqsadida ko'char mulklarning bozor qiymatini baholash uchun axborot yig'ish tartibi:

- zarur ma'lumotlar tarkibini aniqlash;
- axborot manbalarini tanlash; zarur axborotni yig'ish;
- ma'lumotlarni tizimga solish, ularni ishlash va tahlil qilish;
- axborotni baholash to'g'risidagi hisobotda bayon etishni o'z ichiga oladi.

Baholash jarayonida foydalaniladigan axborot baholovchiga narxni shakllantiruvchi eng muhim omillarni aniqlash va baholash obyektining yakuniy qiymati haqida asosli xulosa chiqarish imkoniyatini ta'minlashi lozim.

Baholovchi baholashni o'tkazish uchun zarur bo'lgan axborotni yig'ishni amalga oshiradi, baholash obyektining miqdor va sifat ko'rsatkichlarini o'rganadi, baholash obyektining qiymatini aniqlash uchun muhim bo'lgan axborotni, shu jumladan:

- baholash obyektining qiymatiga ta'sir etuvchi iqtisodiy, ekologik va boshqa omillar haqidagi axborotni;
- baholash obykti mansub bo'lgan bozordagi talab va taklif haqidagi axborotni;

- baholash obyekti haqidagi axborotni, shu jumladan, huquqni tasdiqlovchi hujjatlarni, baholash obyektidan joriy foydalanish haqidagi, baholash obyekti bilan bog'liq qo'shimcha yuklamalar haqidagi ma'lumotlarni, baholash obyektining jismoniy xususiyatlari, uning texnik va foydalanishga oid ko'rsatkichlari, eskirishi, oldingi va kutilayotgan daromadlar va xarajatlar haqidagi axborotni, baholash obyektiga doir buxgalteriya hisobi va hisobot ma'lumotlarini, shuningdek, baholash obyektining qiymatini aniqlash uchun ahamiyatga molik bo'lgan boshqa axborotni baholashni o'tkazish vaqtida qo'llanilishi lozim bo'lgan yondashuvlar va usullar yordamida tahlil qilishni amalga oshiradi.

Sug'urtalash maqsadida ko'char mulklarning bozor qiymatini baholash vaqtida baholovchi yig'ilgan buxgalteriya (moliyaviy) hisoboti ma'lumotlari asosida ularning eskirishi holati, yangilanish darajasi, foydalanishdan tashqarida turgan vositalari, zarar keltirayotgan vositalari kabilar tahlilini amalga oshirishi lozim.

Baholovchi axborotning etarliligi va haqqoniyligini tahlil qilishi, buning uchun tahlilni unga ma'lum bo'lgan vositalar va usullardan foydalanib amalga oshirishi lozim.

Agar qo'shimcha axborotdan foydalanish baholash obyektining yakuniy qiymatining sezilarli darajada o'zgarishiga olib kelmasa, yig'ilgan axborot baholash maqsadi uchun etarli deb hisoblanishi mumkin. Axborotning etarli emasligi baholash obyekti qiymatini baholashning yakuniy natijasiga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, bu hol baholash to'g'risidagi hisobotda aks ettirilishi lozim.

Shuningdek, sug'urtalash maqsadida ko'char mulk obyektlarining bozor qiymatini baholashda baholovchi buyurtmachi bilan tuzgan shartnomasi asosida o'z vazifasini bajarishga kirishishi uchun barcha zaruriy axborotlarga ega bo'lishi lozim. Buning uchun baholovchi quyidagilar haqida batafsil axborotlarga ega bo'lishi talab etiladi:

- buyurtmachi haqida axborot;
- bajaruvchilar haqida axborot;
- baholash obyekti;

- baholanayotgan mulkiy huquqlar;
- baholash maqsadi;
- baholash natijalaridan foydalanish chegarasi;
- baholanayotgan qiymat turi;
- baholash sanasi;
- baholash to'g'risidagi hisobot tuzilgan sana;
- baholash obyektining yakuniy qiymati haqida xulosa;
- farazlar va cheklovchi shartlar;
- baholash milliy standartlari talablariga muvofiqlik haqida bayonot;
- foydalanilgan axborotlar ro'yxati.

Yig'ilgan (buyurtmachidan yoki uning vakillaridan olingan) birlamchi hujjatlarga ega bo'lgan holda, baholovchi buyurtmachining vakili yoki baholash obyektining balansda saqllovchisi (emitent) vakili bilan birga baholash obyektini ko'zdan kechirish, uning amaldagi holatini o'rganish, uni tavsiflash, o'lchash va fotosuratga olishni hamda baholash obyektini indentifikatsiya qilish uchun zarur bo'lgan boshqa harakatlarni bajaradi.

Baholash obyektini identifikatsiya qilish vaqtida baholash obyektining amaldagi holatidan kelib chiqib uning sifat va miqdor ko'rsatkichlarining buyurtmachi va (yoki) uning vakili taqdim etgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligi aniqlanadi.

Shuningdek, baholash obyektiga bo'lgan amaldagi mulkiy huquqlarning mulkka bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarga muvofiqligi o'rganiladi.

Zarur holda baholovchining so'roviga binoan hujjatlarni taqdim etgan shaxs tegishli hujjatlarga aniqliklar (izohlar)ni qo'shimcha ma'lumotnomalar sifatida rasmiylashtiradi.

Baholash obyektini identifikatsiya qilish bo'yicha bajarilgan barcha ishlarni baholovchi baholash to'g'risidagi hisobotda aks ettiradi.

Mashinalar va uskunalarni baholash vaqtida, baholash maqsadiga qarab, quyidagilarni identifikatsiya qilish lozim:

- mustaqil foydalaniladigan mashinalar, agregatlar va qurilmalarni;

- texnologik jarayonga muvofiq texnologik mashinalar va yordamchi moslamalarni birlashtiruvchi texnologik majmualarni;

- ishlab chiqaruvchi tarkibiy bo'linmaning inventar obyektlar to'plamidan iborat bo'lgan mashinalar yoki dastgohlar parkini;

- transport vositalarini.

Mashinalar va uskunalarni identifikatsiya qilish ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda baholanayotgan uskunalarning inventar ro'yxati tahlil qilinadi, ularning texnik-iqtisodiy tavsiflari aniqlanadi. Mazkur axborot manbai bo'lib inventar kartochkalari, texnik pasportlar, tavsifnomalar, foydalanish bo'yicha qo'llanmalar, nomenklatura ma'lumotnomalari va boshqa hujjatlar xizmat qiladi. Ikkinchi bosqich baholash obyekti o'rnatilgan joyda amalga oshiriladi va uning amaldagi holatini o'rganishni nazarda tutadi.

Mashinalar va uskunalarni identifikatsiya qilish quyidagi usullardan biri yordamida amalga oshiriladi:

- yakka tartibda identifikatsiya uskunalari (mashinalar yoki transport vositalari)ning har bitta birligini alohida o'rganish, tashqi ko'zdan kechirish va asbob, moslama, jihoz va inventarning amalda butligini, shuningdek ularning ish qobiliyatini va foydalanish uchun tayyorligini tekshirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Yakka tartibda identifikatsiya mashinalar, uskunalari va transport vositalari alohida baholash obyektlari yoki korxonalarning ustav fondiga kiritish uchun mo'ljallangan obyektlar hisoblangan yoki baholanayotgan korxona tarkibida bo'lgan, miqdori 300 birlikdan kam bo'lgan hollarda o'tkaziladi;

- ommaviy identifikatsiya baholash obyektlarining turdosh guruhlarini (turlar yoki rusumlar yoki foydalanish yo'nalishi yoki boshqalarga ko'ra) shakllantirish printsipiga binoan amalga oshiriladi. Ommaviy identifikatsiya mashinalar, uskunalari va transport vositalari ko'chmas mulk tarkibida uning ajralmas qismi sifatida baholangan yoki baholanayotgan korxona tarkibida bo'lgan, miqdori 300 birlikdan kam bo'lmagan hollarda o'tkaziladi.

Mashinalar, uskunalarni va transport vositalarini identifikatsiya qilish usullaridan qat'iy nazar, identifikatsiya taomilida quyidagi axborotni aks ettirish

talab etiladi: nomi, modeli (rusumi) mazkur turdagi baholanayotgan obyektlar sonini ko'rsatgan holda; ishlab chiqaruvchining nomi; obyektning yo'nalishi; asosiy texnik tavsifi; tayyorlangan yil va (oxirgi) foydalanishga topshirish sanasi; poydevorga o'rnatilishi va kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishi haqida ma'lumotlar; obyektning ta'mirlanishi va unga texnik xizmat ko'rsatilishi, uning ayrim uzellari va agregatlari almashtirilishi haqida ma'lumotlar.

Ko'char mulkni identifikatsiya qilish vaqtida baholovchi zaharli yoki xavfli materiallarning mavjudligi yoki o'zgacha ta'sirini, aniq yoki yashirin nuqsonlarni aniqlash uchun tegishli organlar tomonidan biron-bir tekshiruv o'tkazilgani yoki o'tkazilmaganini baholash to'g'risidagi hisobotda ko'rsatishi lozim.

Biz tahlil qilayotgan "ISAEV HAMKORLIGI" mustaqil baholash kompaniyasi tomonidan sug'urtalash maqsadidagi "Universal taraqqiyot tekstil" MChJ ko'char mulklari obyektlarining jismoniy eskirishi o'rganilganda u quyida keltirilgan 2.2-jadvaldagi ko'rsatkichlarga egaligi aniqlandi:

**2.2-jadval.**

**Sug'urtalash maqsadidagi "Universal taraqqiyot tekstil" MChJ ko'char mulklari obyektlarining jismoniy eskirishining ekspertizasi<sup>31</sup>**

| <b>№</b> | <b>Nomi</b>                                                                                     | <b>Soni</b> | <b>Chiqarilgan yili</b> | <b>Analog</b>                                       | <b>Analog birligi bahosi</b> | <b>Jamg'arilgan eskirish summasi</b> | <b>Jami summasi</b>       |
|----------|-------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|-------------------------|-----------------------------------------------------|------------------------------|--------------------------------------|---------------------------|
| 1        | Yuqori ishlab chiqarish kardochesal mashinasi mikroprotessorli boshqaruvli "Trutzschler DK 903" | 5           | 2004                    | Chesal mashinasi S70 CN (Rieter)                    | \$100500,00                  | 2841176<br>20,50                     | 1420588<br>102,50         |
| 2        | "Trutzschler HSR 1000" yuqori ishlab chiqarish lentali mashina                                  | 4           | 2004                    | Lentali mashina SB-D 45 (Rieter)                    | \$38000,00                   | 1074275<br>58,00                     | 4297102<br>32,00          |
| 3        | Pnevmapryad. mashina BD-D320 240 pryad. bilan                                                   | 6           | 2004                    | Koltsepryad. mash. R-35(Rieter) c 360 pryad. kamera | \$300240,00                  | 8487907<br>89,84                     | 5092744<br>739,04         |
| 4        | Yuqori ishlab chiqarish kardochesal mashinasi "Trutzschler TS-03" IDF bilan                     | 2           | 2007                    | Chesal mashinasi S70 CN (Rieter)                    | \$100500,00                  | 2841176<br>20,50                     | 5682352<br>41,00          |
|          | <b>Jami:</b>                                                                                    | <b>17</b>   |                         |                                                     |                              | <b>1524453<br/>588,84</b>            | <b>7511278<br/>314,54</b> |

<sup>31</sup> "ISAEV HAMKORLIGI" mustaqil baholash kompaniyasi tomonidan sug'urtalash maqsadida baholanayotgan ko'char mulk bo'yicha tayyorlangan hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Biz tahlil qilayotgan, “Universal taraqqiyot tekstil” MChJ qarashli texnologik mashina va uskunalarning bozor qiymati “ISAEV HAMKORLIGI” mustaqil baholash kompaniyasi tomonidan sug’urtalash maqsadida baholanayotganda quyidagi me’yoriy hujjatlarga asoslanilgan:

1. O‘zbekiston Respublikasi 1999 yil 19 avgustdagi 811-I-sonli “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 24 apreldagi “Baholovchi tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirish va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati uchun ularning mas’uliyatini oshirish to‘g‘risida” PQ-843-sonli Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi mulkni baholash milliy standarti. “Tushuncha va aniqliklar”. O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasining 14.06.2006 yildagi 01/19-19-sonli qarori bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 24.07.2006 yilda 1604-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan.

4. O‘zbekiston Respublikasi mulkni baholash milliy standarti. “Baholash bazasiga ko‘ra bozor qiymati”. O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasining 14.06.2006 yildagi 01/19-19-sonli qarori bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 24.07.2006 yilda 1605-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan.

- O‘zbekiston Respublikasi 15-sonli MBMS “Mashina va uskunalar qiymatini baholash” Mulkni baholash milliy standarti. O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasining 2006 yil 24 iyuldagi 01/19-23-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

“ISAEV HAMKORLIGI” mustaqil baholash kompaniyasi tomonidan sug’urtalash maqsadida baholash uchun qabul qilingan “Universal taraqqiyot tekstil” MChJ ko‘char mulk to‘g‘risidagi umumiy axborotlar quyidagi 2.3-jadvalda keltirilgan:

**Sug'urtalash maqsadida ko'char mulkining bozor qiymati baholanayotgan "Universal taraqqiyot tekstil" MChJ va baholovchi tashkilot to'g'risidagi axborotlar<sup>32</sup>**

|                                                                                                                             |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Buyurtmachi va uning rekvizitlari                                                                                           | <p>"Universal taraqqiyot tekstil" MChJ.<br/> Manzil: Yakkabog' shahri, Cho'mich MFY,<br/> "To'qimachi" ko'chasi, 2-uy.<br/> Telefon: (98) 520-00-86, Asaka bank Qarshi filialida<br/> 20208000100511998001 hisob raqamiga ega, MFO:<br/> 00194; STIR: 303476362; XXTUT: 17116</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
| Baholovchi tashkilot va uning rekvizitlari                                                                                  | <p>"Isaev hamkorligi" XK Qarshi shahar filiali.<br/> Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar, 4-mitti tuman, 2-uyning birinchi qavatida joylashgan, telefon (faks): (375) 223-26-26, O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki Qarshi filialida 20208000904746569005 hisob raqamiga ega, MFO: 00150; STIR: 301028002; pochta indeksi: 180101, e-mail: baholash@mail.ru<br/> O'zR DMQ tomonidan baholash faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi BL 001 seriyali №0105 tartib rakamli litsenziya 20.10.2009 yilda berilgan. Baholash tashkilotining professional javobgarligini sug'urta qilish polisi (A 269764) № 06/381134290 sug'urtalovchi – EIM "O'zbekinvest" sug'urta kompaniyasi.</p> |
| Baholashda ishtirok etgan baholovchilar xakida ma'lumot                                                                     | Baholovchi – Boboxonov Ja'far Muxiddinovich 24.12.2013 yildagi BS 001 №0749-sonli malaka sertifikatiga ega.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |
| Baholashni o'tkazish uchun asos                                                                                             | 2018 yil 20 apreldagi 96/04f sonli shartnoma                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |
| Baholash ob'ektining tashkiliy-huquqiy shakli                                                                               | Egalik huquqi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
| Baholashning maqsadi va vazifalari                                                                                          | Garov ta'minoti maqsadida baholash ob'ektining bozor qiymatini aniqlash                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |
| Aniqlanayotgan qiymat turi                                                                                                  | Bozor qiymati                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
| Cheklovchi shartlar                                                                                                         | Yo'q                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
| Baholash sanasi                                                                                                             | 2018 yil 20 aprel                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
| Baholashni o'tkazish grafigi (muddatlari)                                                                                   | Baholash uchun ma'lumotlar to'plami to'liq taqdim qilingandan so'ng hamda baholash uchun to'lanadigan xizmat xaqining birlamchi miqdori baholash tashkiloti hisob raqamiga kelib tushgandan so'ng – 5 ish kuni.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
| Baholash to'g'risidagi hisobotni buyurtmachiga taqdim etish sanasi                                                          | 2018 yil 27 aprel                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
| Buyurtmachi yoki o'zga vakolatli shaxs taqdim etgan axborot ro'yxati:                                                       | <p>- Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan boshlang'ich ma'lumotlar;</p> <p>- Baholash ob'ektining holati to'g'risida dalolatnoma.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |
| Baholash sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan aniqlangan valyuta kurslarining so'mga nisbatan qiymati | <p>1 AQSh dollari \$ = 8077,26 so'm</p> <p>1 Rossiya rubli = 128,01 so'm</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |

<sup>32</sup> "ISAEV HAMKORLIGI" mustaqil baholash kompaniyasi tomonidan sug'urtalash maqsadida baholanayotgan ko'char mulk bo'yicha tayyorlangan hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

“Universal taraqqiyot tekstil” MChJ qarashli texnologik mashina va uskunalarning sug’urtalash maqsadidagi bozor qiymatini “ISAEV HAMKORLIGI” mustaqil baholash kompaniyasi tomonidan baholash jarayonlari va natijasi to’g’risida keyingi bobda alohida bayon etamiz.

## **2-bob bo’yicha xulosa**

1. Ko’char mulk ob’ektlarining bozor qiymatiga ta’sir etuvchi omillarni tasniflash natijasida obyektiv va subyektiv omillarga; makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarga bog’liqligi o’rganildi va ular alohida omillarga ajratib ko’rsatildi.

2. Sug’urtalash maqsadida ko’char mulk qiymatini baholashda ularning rusumini, texnologik tarkibini, identifikatsiyasini, ekspluatatsiyasini hamda ekspertizadan o’tkazilishi zarurligini alohida qayd etib o’tmoq lozim. Bunda eng asosiy manba har doimgidek axborotlar bo’lib qolishini ta’kidlab o’tmoq lozim.

3. “ISAEV HAMKORLIGI” mustaqil baholash kompaniyasi tomonidan sug’urtalash maqsadida baholangan obyekt “Universal taraqqiyot tekstil” MChJ qarashli texnologik mashina va uskunalar hisoblanib, ularning dastlabki texnik tavsifiga oid ma’lumotlarni o’rganib chiqdik va keyingi bobda ularning qiymatini baholash ishlarini amalga oshiramiz.



### **3-BOB.      SUG'URTALASH      MAQSADIDA      “UNIVERSAL TARAQQIYOT TEKSTIL” MCHJ KO'CHAR MULKINING QIYMATINI BAHOLASH BO'YICHA HISOBOT SHAKLIDA EKSPERT XULOSASINI TAYYORLASHNI TAKOMILLSHTIRISH**

#### **3.1. Sug'urtalash maqsadida “Universal taraqqiyot tekstil” MChJ ko'char mulkining bozor qiymatini baholash**

“ISAEV HAMKORLIGI” mustaqil baholash kompaniyasi sug'urtalash maqsadida baholash ob'ekti – “Universal taraqqiyot tekstil” MChJ ko'char mulki qiymatini aniqlashda baholovchi tegishli bozor ma'lumotlari asosida o'rnini bosish tamoyiliga amal qilgan holda qo'yida keltirilgan baholash yondashuvlaridan foydalangan holda sug'urtalash maqsadidagi ko'char mulk qiymatini baholashni amalga oshirdi:

1. Xarajatga oid yondashuv – baholash ob'ektini uning eskirishini hisobga olgan holda tiklash yoki o'rnini bosish uchun zarur bo'lgan xarajatlarni aniqlashga asoslangan baholash ob'ektining qiymatini baholash uslublari yig'indisi. Ushbu mol-mulkning o'rinbosari sifatida asl mahsulot nusxasi hisoblanadigan yoki teng foydalilikni ta'minlay oladigan boshqa mol-mulkni yaratish mumkinligi ko'zda tutiladi.

2. Qiyosiy yondashuv – baholash ob'ektini bitimlar narxi yoki kiritiladigan tuzatishlar miqdori asoslangan taklif narxlari mavjud o'xshash ob'ektlar bilan taqqoslashga asoslangan baholash ob'ektining qiymatini baholash uslublari yig'indisi. Ushbu yondashuvda o'xshash yoki o'rinbosar ob'ektlarning savdosi hamda tegishli bozor ma'lumotlari ko'rib chiqiladi, qiymatning hisob miqdori esa taqqoslash ko'zda tutilgan jarayon vositasida aniqlanadi. Umumiy holatda baholash ob'ekti bozorda mavjud bo'lgan o'xshash ob'ektlar savdosi bilan taqqoslanadi. Shuningdek, listing (kotirovka) hamda qimmatli qog'ozlarning dastlabki tarqalishi ma'lumotlari e'tiborga olinishi mumkin.

#### **1. Xarajatga oid yondashuv asosida ko'char mulk qiymatini baholash.**

Baholanayotgan ob'ektning tiklanish qiymati ularning balans qoldiq qiymatiga ko'ra, bugungi kundagi ichki va tashqi bozorlarni o'rganish natijasida olingan ma'lumotlarga asosan aniqlanadi. Ob'ektning baholash jarayonida buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan bojxona deklaratsiyasi, shartnoma va hisob-fakturalar o'rganib chiqiladi va tahlil qilinadi. O'rganishlar va tahlil natijalariga ko'ra mol-mulkning tiklanish qiymati aniqlanadi va joriy xolati buyicha eskirish qiymatini hisobga olgan holda qiymati aniqlanadi.

Mashinalar va uskunalar qiymatini hisoblash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- a) Tiklanish qiymatini yoki almashtirish qiymatini aniqlash;
- b) Eskirish qiymatini aniqlash;
- v) Bozor qiymatini hisoblash.

Tiklash qiymati quyidagi metodlarning biri yordamida hisoblanadi:

- turdosh ob'ekt narxi bo'yicha hisoblash usuli;
- elementma-element hisoblash usuli;
- indeks usuli.

Bunda, turdosh mashinalar va uskunalar bo'yicha umumiy metod qo'llaniladi.

Baholashga buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan mol-mulkni tiklanish qiymati bugungi kun holatidan kelib chiqqan holda amalga oshirildi.

Baholash ishlarini xarajat yondashuvida amalga oshirishda baholash ob'ekti tiklanish qiymatini aniqlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududida va tashqi bozorlarda taklif qilinayotgan ma'lumotlar hamda "Shurtan gaz-kimyo majmuasi" tomonidan "Rieter" kompaniyasi bilan tuzilgan bitimlar narxlari va "Wood decor production" MChJ shaklidagi qo'shma korxona shartnomalari va bojxona deklaratsiyalaridan foydalanildi. Bunda bojxona deklaratsiyalari va hisob-fakturalardagi muvofiq analog qiymatiga asoslanildi hamda mavjud farqlar bo'yicha tuzatishlar kiritildi va baholash ob'ektining tiklanish qiymati shu qiymatiga asoslangan holda qabul qilindi.

Baholash ob'ektlarining eskirish hajmi fizik, funktsional va tashqi

(iqtisodiy) eskirishlar natijasida tiklash qiymatidagi yo'qotishlar yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Uskunalarni jismoniy eskirishi joriy holatini hisobga olgan holda BXMSning Xususiylashtirish maqsadida baholash 9-standartiga asosan baholash ob'ektlarining jismoniy eskirishi quyidagi jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlarga muvofiq ekspert yo'li bilan aniqlanadi:

**3.1-jadval**

**Baholash ob'ektlarining jismoniy eskirishini ekspert yo'li bilan aniqlash**

| <b>Holatning bahosi</b>    | <b>Texnik holat tavsifi</b>                                                                                                                                                                                                                                    | <b>Eskirish</b> |
|----------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|
| Yangi                      | Yangi (shu jumladan o'rnatilgan, lekin foydalanishga kiritilmagan), a'lo holatda.                                                                                                                                                                              | 5% gacha        |
| Juda yaxshi                | Nosozliklarsiz ishlayotgan, oz muddat foydalanilgan, nuqsonlar va nosozliklar aniqlanmagan uskuna.                                                                                                                                                             | 5%-20%          |
| Yaxshi                     | Ish qobiliyatini cheklamaydigan kichik foydalanish nuqsonlariga ega bo'lgan uskuna. Kapital ta'mirlashdan chiqqan, yaxshi holatdagi uskuna.                                                                                                                    | 20%- 35%        |
| Qoniqarli                  | Qoniqarli holatdagi uskuna. Ish rejimlarini tanlashda ta'mirlashlar orasida xizmatlar ko'rsatish yoki joriy ta'mirlash vaqtida bartaraf etiladigan ba'zi bir cheklashlar bo'lishi mumkin.                                                                      | 35%-50%         |
| Shartli ravishda yaroqli   | Uskuna ishida bartaraf etish uchun rejadan tashqari ta'mirlashlar o'tkazish talab etiladigan nosozliklar kuzatiladi. Ish rejimlarini tanlash va eng katta yuklanishlarga cheklashlar bor. Asosiy qismlarini jiddiy ta'mirlash yoki almashtirish talab etiladi. | 50%-75%         |
| Qoniqarsiz                 | Tez-tez buzilib turadigan, asosiy uzellarni kapital ta'mirlashni talab etadigan, yomon holatdagi uskuna.                                                                                                                                                       | 75%-90%         |
| Foydalanish uchun yaroqsiz | Asosiy yo'nalishi bo'yicha foydalanishga yaroqsiz bo'lgan uskuna. Hali ishlayotgan asosiy materiallar qiymati bo'yicha sotishdan boshqa aqlga muvofiq imkoniyatlar yo'q.                                                                                       | 90% dan ortiq   |

Baholanayotgan ob'ektning – “Universal taraqqiyot tekstil” MChJ ko'char mulkining eskirish qiymati yuqorida keltirilgan jadval asosida hisoblab chiqildi va u yuqoridagi 2.2-jadvalga keltirilgan.

Funktsional eskirish. Funktsional eskirish qiymatini aniqlashda baholovchi bartaraf etib bo'ladigan funktsional eskirish va bartaraf etib bo'lmaydigan funktsional eskirishni hisoblaydi. Yaxshilash ayrim elementlarining yo'qligi, etarli emasligi yoki keragidan ortiqqligiga qarab funktsional eskirishning quyidagi turlari hisoblanadi:

- yaxshilashlar bozorning hozirgi talablariga muvofiqligining muqarrar omili sanalgan elementning yo'qligi bilan bog'liq va mavjud yaxshilashlarda etishmayotgan elementni o'rnatish xarajatlari bilan baholash sanasidagi yangi qurilishda mazkur elementni yaxshilashlarga o'rnatish xarajatlari o'rtasidagi farqqa teng bo'lgan bartaraf etib bo'ladigan funktsional eskirish;

- yaxshilashlar bozorning hozirgi talablariga muvofiqligining muqarrar omili sanalgan elementning yo'qligi bilan bog'lig' va sof operatsion daromad yo'qotishlarining joriy qiymatlari bilan yaxshilash elementining yo'qligi bilan bohliq har qanday xarajatlar yihindisiga teng bo'lgan bartaraf etib bo'lmaydigan funktsional eskirish.

Baholash ob'ekti yaxshilashlari baholash sanasida konstruktiv echimlaridada funktsional eskirish alomatleri aniqlanmaganligi bois, funktsional eskirish qiymati hisoblanmadi.

Tashqi eskirish. Tashqi eskirish – baholash ob'ektining ijtimoiy-iktisodiy, siyosiy, qonunchilikning o'zgarishi, atrof-muhit o'zgarishi kabi omillar natijasida o'z qiymatini yo'qotishini anglatadi.

Baholash sanasida baholash ob'ektiga nisbatan bunday omillar aniqlanmaganligi sababli tashqi eskirish qiymati aniqlanmadi.

Baholash ob'ektining umumiy eskirish qiymati ajratish usuli bilan quyidagi formula orqali aniqlandi:

$$E_y = E_{jis} + E_{funk} + E_{tash}, \quad (3.1)$$

*bunda:*  $E_y$  – yig'ilgan (jami) eskirish;  $E_{jis}$  – jismoniy eskirish;  $E_{funk}$  – funktsional eskirish;  $E_{tash}$  – tashqi (iktisodiy) eskirish.

Keltirilgan formula va hisoblash qoidalariga muvofiq "ISAEV HAMKORLIGI" mustaqil baholash kompaniyasi tomonidan sug'urtalash maqsadida "Universal taraqqiyot tekstil" MChJ ko'char mulki qiymatini xarajatli yondashuv asosida baholash ishlari amalga oshirilishi natijasida buyurtmachining ko'char mulki ob'ektlarining umumiy baholash qiymati aniqlandi va uning umumiy natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagi 3.2-jadvalda keltirilgan.

**Xarajat yondashuvi asosida sug'urtalash maqsadida "Universal taraqqiyot tekstil" MChJga tegishli baholash ob'ektlarining qiymatini baholash natijalari<sup>33</sup>**

| Ko'rsatkich                          | To'liq tiklanish qiymati, so'm | Jismo niy eskirish | Funkt sional eskirish | Iqtisodiy eskirish | Yig'ilgan eskirish, so'm | Eskirish hisobga olingan holda tiklanish qiymati, so'm |
|--------------------------------------|--------------------------------|--------------------|-----------------------|--------------------|--------------------------|--------------------------------------------------------|
| 30 turdagi jami mashina va uskunalar | 25955906579                    | 45%                | 0%                    | 0%                 | 11678918960,68           | 14276987618,61                                         |

Olib borilgan hisob-kitoblarga asoslanib, sug'urtalash maqsadida "Universal taraqqiyot tekstil" MChJga tegishli baholash ob'ektlarining xarajat yondashuvida baholash qiymati **14276987619 so'm**ni tashkil etdi.

Ushbu xarajatli yondashuv asosida sug'urtalash maqsadida "Universal taraqqiyot tekstil" MChJga tegishli baholash ob'ektlarining qiymatini aniqlashga oid 3.2-jadvalga keltirilgan ma'lumotlarning to'liq tarkibdagi ko'rinishi 1-ilovada keltirilgan.

## **2. Qiyosiy yondashuv asosida ko'char mulk qiymatini baholash.**

Qiyosiy (nisbiy solishtirma) yondashuv – baholash ob'ektini bitimlar narxi yoki kiritiladigan tuzatishlar miqdori asoslangan taklif narxlari mavjud o'xshash ob'ektlar bilan taqqoslashga asoslangan baholash ob'ektining qiymatini baholash uslublari yig'indisi. Ushbu yondashuvda o'xshash yoki o'rinbosar ob'ektlarning savdosi hamda tegishli bozor ma'lumotlari ko'rib chiqiladi, qiymatning hisob miqdori esa taqqoslash ko'zda tutilgan jarayon vositasida aniqlanadi. Umumiy holatda baholash ob'ekti bozorda mavjud bo'lgan o'xshash ob'ektlar savdosi bilan taqqoslanadi.

Qiyosiy yondashuv ixtiyoriy xaridorlar va sotuvchilar o'zlariining erkin qarorlariga asoslanib, shaxsiy mulklarni sotadigan yoki xarid qiladigan ochik faoliyat yurituvchi bozordagi baholanayotgan ob'ektga aynan o'xshash bo'lgan

<sup>33</sup> "ISAEV HAMKORLIGI" mustaqil baholash kompaniyasi tomonidan sug'urtalash maqsadida baholanayotgan ko'char mulk bo'yicha tayyorlangan hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

yoki muqobil (analog) bo'lgan ob'ekt qiymati tahlil qilinadi va taqqoslash ishlari amalga oshiriladi.

Qiyosiy sotuvlar usuli yordamida baholash uchun mashinalar, uskunalar va transport vositalari qiymatini qiyosiy yondashuv bilan baholash bozor narxlari asosida analog bilan to'g'ridan-to'g'ri solishtirish usuli yordamida amalga oshirildi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oldi:

- ikkilamchi bozorda sotilayotgan mutloq analog bilan;
- mutloq analog bo'lmasa, ikkilamchi bozorda sotilayotgan baholash ob'ektiga o'xshash bo'lgan analog bilan, tuzatishlar kiritish orqali;
- ikkilamchi bozor bo'lmasa, yangi o'xshash uskuna bilan, eskirishga tuzatishlar kiritish orqali amalga oshiriladi.

Ob'ektlarni baholashda qiyosiy yondashuv qo'llanilganda quyidagi usullarning biridan foydalaniladi:

- baholash ob'ekti bilan oldingi bitimlar usuli;
- kapital bozori (kompaniya-analog) usuli;
- bitimlar usuli;
- bozorga oid taqqoslashlar usuli;
- analog bilan to'g'ridan-to'g'ri taqqoslash usuli;

Qiyosiy yondashuv bilan baholashda qo'llanilayotgan baholash usulidan qat'iy nazar (baholash ob'ekti bilan oldingi bitimlar usulidan tashqari), analoglar ro'yxati kamida uch ob'ektni o'z ichiga olishi lozim.

Mashinalar, uskunalar va transport vositalari qiymatini analog bilan to'g'ridan-to'g'ri solishtirish usuli bilan baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- a) analoglar bozorining tahlili;
- b) mos kelishuvchi taqqoslash birliklarini tanlash;
- v) mos kelishuvchi taqqoslash elementlarini aniqlash;
- g) baholash ob'ekti va analog o'rtasidagi farqlarga qarab tuzatishlar kiritish;
- d) baholash ob'ektni yakuniy qiymatini hisoblash.

Analoglar asosiy ko'rsatkichlari – funktsional yo'nalishi, konstruktiv va

parametrik o'xshashliklarga ko'ra tanlanadi.

Funktsional analoglar yo'nalish jihatidan o'xshashlik bilan tavsiflanadi, ya'ni ular bir xil funktsiyalar (operatsiyalar, amallar, jarayonlar)ni bajarishga qodir. Maqsadi bir bo'lgan va muayyan darajada bir-birining o'rnini bosa oladigan funktsional analoglar tuzilishi, amal qilish printsipli, foydalanish vaqtida iste'mol qiladigan resurslarga ko'ra farq qilishi mumkin. Funktsional o'xshashlik – qiyosiy yondashuv bilan baholashning zaruriy, lekin etarli bo'lmagan sharti.

Konstruktiv analoglar asosiy vositalari turi (turkumi)ga ko'ra o'xshashlik bilan tavsiflanadi va yaqin (yoki deyarli bir xil) va tuzilish jihatidan o'xshash analoglarga bo'linadi.

Parametrik analoglar asosiy ishlab chiqarish va foydalanish ko'rsatkichlari (ishlab chiqarish quvvati, og'irlik, gabaritlar va boshqalar) bo'yicha o'xshashlik bilan tavsiflanadi.

Asosiy vositalarni analog bilan to'g'ridan-to'g'ri solishtirish usuli bilan baholashda baza sifatida parametrlari qiymat jihatidan baholanayotgan ob'ektga mumkin qadar yaqin bo'lgan yaqin (deyarli bir xil) analoglarni tanlash lozim.

Analoglarni tanlashda baholash ob'ekti bilan ayni bir ishlab chiqaruvchi tomonidan va ayni bir mamlakatda ishlab chiqarilgan asosiy vositalarning birliklariga ustunlik beriladi.

Baholash ob'ekti qiymati bozorga oid taqqoslashlar usuli bilan aniqlash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

a) bozorni urganish va baxolanayotgan ob'ektga o'xshash ob'ektlarni sotish bo'yicha bitimlar yoki takliflar haqida axborot yig'ish;

b) taqqoslash elementlarini tanlash va asoslash;

v) baholash ob'ekti bozoriga xos bulgan taqqoslash birliklarini tanlash;

g) qiyosiy analoglarni baholash ob'ekti bilan taqqoslash birliklariga kura solishtirish va baholash ob'ekti bilan taqqoslanayotgan xar bir ob'ekt narxiga tuzatishlar kiritish;

d) analoglar narxlarining tuzatish kiritilgan qiymatlarini muvofiklashtirish.

Taqqoslash elementlari sifatida fakat narxni belgilaydigan va analoglar

narxiga jiddiy ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan elementlar yuqorida keltirilgan 2.1-jadval ma'lumotlari orasidan olinadi.

Sotishlarni taqqoslash usuli bo'yicha baholashda ichki bozorlarda sotilgan rasmiy manbalarda ko'rsatilmaganligi va internet tarmog'idagi e'lonlarni o'rganib chiqilganda ushbu ob'ektga o'xshash ob'ektlarni sotilganligi xaqidagi ma'lumotlar [www.exapro.com](http://www.exapro.com), [www.rayanusa.com](http://www.rayanusa.com), [www.wotol.com](http://www.wotol.com) va [www.seair.co.in](http://www.seair.co.in) saytlarida berilgan ma'lumotlardan foydalanildi. internet tarmog'idan olingan ma'lumotlarga asosan ushbu ob'ektlarni sotish uchun taklif qilayotgan sub'ektlar taklif etilayotgan narxni bitim paytida qisman chegirmalar bo'lishii xisobga olindi. Baholanayotgan ob'ektning o'ziga xos xususiyatlarini (ishlab chikarish kuvvati, massasi, qulayliklar mavjudligi) hisobga olgan holda internet tarmog'ida keltirilgan ma'lumotlarga tuzatishlar kiritildi. Ob'ektni narxiga tuzatish kiritish jarayonida muvofiqlashtirish darajalari baholovchining malakasiga va bilimlariga asosan belgilandi.

Qiyosiy yondashuv asosida ISAEV HAMKORLIGI" mustaqil baholash kompaniyasi tomonidan sug'urtalash maqsadidagi "Universal taraqqiyot tekstil" MChJga tegishli baholash ob'ektlarining turkumlari (1-ilovada keltirilgan turkumlar) bo'yicha qiymati baholanganda quyidagi 3.3-jadvalda keltirilgan umumiy turkumdagi qiymatlari shakllantirildi.

### 3.3-jadval

#### Qiyosiy yondashuvi asosida sug'urtalash maqsadida "Universal taraqqiyot tekstil" MChJga tegishli baholash ob'ektlarining qiymatini baholash natijalari<sup>34</sup>

| №                                                                                              | Ko'rsatkichlar va ularga qisqacha izoh                    | Baholash ob'ekti                             | Taqqoslash ob'ekti - 1                       | Taqqoslash ob'ekti - 2                       | Taqqoslash ob'ekti - 3                       |
|------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------|----------------------------------------------|----------------------------------------------|----------------------------------------------|----------------------------------------------|
| 1-turkum – Kardocheselkali mashina "Trutzschler DK 903"ning qiyosiy yondashuvdagi hisob-kitobi |                                                           |                                              |                                              |                                              |                                              |
| 1                                                                                              | Baholanayotgan va analog ob'ektlar va qiskacha izoh       | Kardocheselkali mashina "Trutzschler DK 903" | Kardocheselkali mashina "Trutzschler DK 903" | Kardocheselkali mashina "Trutzschler DK 803" | Kardocheselkali mashina "Trutzschler DK 803" |
| 2                                                                                              | Muvofiqlashtirilgan qiymati, so'm                         |                                              | 85 053 548                                   | 67 552 145                                   | 43 508 161                                   |
| 3                                                                                              | Qiyosiy yondashuvdagi bir birlik uskunaning qiymati, so'm | 196 113 853                                  |                                              |                                              |                                              |
| 4                                                                                              | Kardocheselkali                                           | 980 569 267,43                               |                                              |                                              |                                              |

<sup>34</sup> "ISAEV HAMKORLIGI" mustaqil baholash kompaniyasi tomonidan sug'urtalash maqsadida baholanayotgan ko'char mulk bo'yicha tayyorlangan hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



|                                                                                                             |                                                                                  |                                             |                                             |                                             |                                             |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------|---------------------------------------------|---------------------------------------------|---------------------------------------------|
|                                                                                                             | mashina<br>(12 pozitsiya)<br>komplekt qiymati,<br>so'm                           |                                             |                                             |                                             |                                             |
| 2-turkum – Predpryadkali (lentali mashinalar) “Trutzschler HSR 1000”ning qiyosiy yondashuvdagi hisob-kitobi |                                                                                  |                                             |                                             |                                             |                                             |
| 5                                                                                                           | Baholanayotgan va analog ob’ektlar va qiskacha izoh                              | Lentali mashina “Trutzschler HSR 1000”      | Lentali mashina “Trutzschler HSR 1000”      | Lentali mashina “Trutzschler HSR 1000”      | Lentali mashina “Trutzschler HSR 1000”      |
| 6                                                                                                           | Muvofiqlashtirilgan qiymati, so'm                                                |                                             | 29 164 579                                  | 51 468 301                                  | 37 292 709                                  |
| 7                                                                                                           | Qiyosiy yondashuvdagi bir birlik uskunaning qiymati, so'm                        | 117 925 589                                 |                                             |                                             |                                             |
| 8                                                                                                           | Predpryadkali (lentali mashinalar) (5 pozitsiya) komplet qiymati, so'm           | 471 702 356,44                              |                                             |                                             |                                             |
| 3-turkum – Pnevmapryadkali mashina “BD-D320”ning qiyosiy yondashuvdagi hisob-kitobi                         |                                                                                  |                                             |                                             |                                             |                                             |
| 9                                                                                                           | Baholanayotgan va analog ob’ektlar va qiskacha izoh                              | Pnevmapryadkali mashina “BD-D320”           | Pnevmapryadkali mashina “BD-448”            | Pnevmapryadkali mashina “338 K-40”          | Pnevmapryadkali mashina “WINDER 21C-S 60”   |
| 10                                                                                                          | Muvofiqlashtirilgan qiymati, so'm                                                |                                             | 381 039 894                                 | 300 439 536                                 | 403 938 926                                 |
| 11                                                                                                          | Qiyosiy yondashuvdagi uskunaning qiymati, so'm                                   | 1 085 418 356                               |                                             |                                             |                                             |
| 12                                                                                                          | Pnevmapryadkali mashina bo'linmasi (8 pozitsiya), so'm                           | 6 512 510 135,38                            |                                             |                                             |                                             |
| 4-turkum – Cheselkali mashina “Trutzschler TS-03”ning qiyosiy yondashuvdagi hisob-kitobi                    |                                                                                  |                                             |                                             |                                             |                                             |
| 13                                                                                                          | Baholanayotgan va analog ob’ektlar va qiskacha izoh                              | Kardocheselkali mashina “Trutzschler TS 03” | Kardocheselkali mashina “Trutzschler TS 06” | Kardocheselkali mashina “Trutzschler TS 06” | Kardocheselkali mashina “Trutzschler TS 06” |
| 14                                                                                                          | Muvofiqlashtirilgan qiymati, so'm                                                |                                             | 132 928 881                                 | 108 197 927                                 | 119 532 948                                 |
| 15                                                                                                          | Qiyosiy yondashuvdagi uskunaning qiymati, so'm                                   | 360 659 756                                 |                                             |                                             |                                             |
| 16                                                                                                          | Yuqoli ishlab chiqarish kardocheselkali mashina TS-03 IDF bilan (komplekt), so'm | 360 659 756                                 |                                             |                                             |                                             |
| 5-turkum – Pnevmapryadkali mashina “Shlafhorst”ning qiyosiy yondashuvdagi hisob-kitobi                      |                                                                                  |                                             |                                             |                                             |                                             |
| 17                                                                                                          | Baholanayotgan va analog ob’ektlar va qiskacha izoh                              | Pnevmapryadkali mashina “Shlafhorst”        | Koltsepryadkali mashina “BD-448”            | Koltsepryadkali mashina “338 K-40”          | Koltsepryadkali mashina “WINDER 21C-S 60”   |
| 18                                                                                                          | Muvofiqlashtirilgan qiymati, so'm                                                |                                             | 166 704 954                                 | 139 226 115                                 | 128 234 580                                 |
| 19                                                                                                          | Pnevmapryadkali mashina “Shlafhorst”, so'm                                       | 434 165 649                                 |                                             |                                             |                                             |

Qiyosiy yondashuv asosida ISAEV HAMKORLIGI” mustaqil baholash kompaniyasi tomonidan sug’urtalash maqsadidagi “Universal taraqqiyot tekstil” MChJga tegishli baholash ob’ektlarining turkumlari bo’yicha olib borilgan baholash ishlari natijasida mashina va uskunalarning umumiy qiymati 10930435406,51 so’mni, muvofiqlashtirish koeffitsienti qo’llanilganidan so’ng yakuniy **5933664934,96 so’mni** tashkil etishi aniqlandi.

Ushbu qiyosiy yondashuv asosida sug’urtalash maqsadida “Universal taraqqiyot tekstil” MChJga tegishli baholash ob’ektlarining qiymatini aniqlashga oid 3.3-jadvalga keltirilgan ma’lumotlarning to’liq tarkibdagi ko’rinishi 2-ilovada keltirilgan.

### **3.2. Sug’urtalash maqsadida “Universal taraqqiyot tekstil” MChJ ko’char mulkining yakuniy bozor qiymatini aniqlash va ekspert xulosasi loyihasini shakllantirish**

Baholash natijalarini muvofiqlashtirish – baholashga nisbatan turli yondashuvlar yordamida olingan natijalarni o’lchash va taqqoslash yo’li bilan baholash ob’ektining yakuniy qiymatini aniqlash.

Muvofiqlashtirish quyidagi usullardan biri bilan amalga oshiriladi:

- *mantiqiy muvofiqlashtirish usuli* – bu, baholovchi amalga oshiradigan tahlil asosida, barcha muhim parametrlarni hisobga olgan holda solishtirma o’lchovlarni tanlashdan iborat. Baholovchi ustun yondashuvni aniqlaydi, qolgan yondashuvlarning natijalaridan esa ustun yondashuv yordamida olingan natijani tekshirish va unga tuzatish kiritish uchun foydalaniladi;

